

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYA-IQTISOD” FAKULTETI

“MOLIYA” KAFEDRASI

KO'SHIEV OBID ALIEVICH

**“MAXALLIY BYUDJET – BYUDJET TIZIMINING MUHIM BO‘G‘INI
SIFATIDA”**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Moliya» kafedrası mudiri

_____ 2013
« ____ » _____

Ilmiy rahbar:

K.o‘q. I.Jumaniyozov

TOSHKENT 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MAHALLIY BYUDJETLARNING BYUDJET TIZIMIDA TUTGAN O'RNI, VAZIFALARI VA HUDUDLARNING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.....	8
1.1. Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati va byudjet tizimida tutgan o'rni.....	8
1.2. Mahalliy byudjetlar shakllanishi va ishlatilishining tashkiliy-huquqiy asoslari.....	12
1.3. Mahalliy byudjetlarning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati.....	18
I Bob bo'yicha xulosalar.....	24
II BOB. MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI SHAKLLANISHI VA XARAJATLAR YO'NALISHINING TAHLILI.....	26
2.1. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili.....	26
2.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi va ularning amaldagi holati tahlili.....	40
I Bob bo'yicha xulosalar.....	53
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI.....	55
3.1. Mahalliy byudjetlar daromadlarining barqarorligini ta'minlash masalalari.....	55
3.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini samarali boshqarish va ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini oshirish yo'nalishlari.....	61
I Bob bo'yicha xulosalar.....	68
Xulosa va takliflar.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	74

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar moliya munosabatlarida, jumladan, byudjet tizimi, byudjet jarayoni va byudjetlararo munosabatlar asoslarini ijtimoiy-iqtisodiy yaratuvchanlik ruhida qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. «Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlagan hamda moliyaviy barqarorlikka erishgan islohotlarning hozirgi davrida davlat moliyasi va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlash, mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash muhim strategik vazifa hisoblanadi».

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishiga oid tub iqtisodiy islohotlar o'tkazilishi byudjet tizimi, jumladan, mahalliy byudjetlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog'liqdir. Islohotlar chuqurlashishi bilan mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan chora-tadbirlar hajmi oshaveradi, shuningdek, ular ixtiyoriga qoladigan daromadlar ham kengayaveradi.

Davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi¹.

Mamlakatimiz moliya-byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida va bugungi kundagi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida mahalliy byudjetlar xarajatlarini samarali boshqarishni taqazo etmoqda.

¹ Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish – T.: O'zbekiston. 2013. – 64 b.

Bugunga kelib mamlakatimiz iqtisodiyotida bir qancha ijobiy yutuqlar ham qo'lga kiritildi. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ta'kidlab o'tganidek, "Shuni bugun katta mamnuniyat bilan ta'kidlashimiz kerakki, hukumatimiz tomonidan 2009–2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi dasturning inqiroz ta'sirini yumshatish va bartaraf etishda roli va ahamiyati katta bo'ldi. Dastur o'ziga qamrab olgan, o'z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarga yordam ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o'zining amaliy samarasini berdi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz"² deb bejiz aytmagan. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy byudjetlar tashkil etadi.

Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ular mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko'rsatishlarida asosiy moliyaviy manba bo'lib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini joylarda amalga oshirishda asosiy rolni o'ynaydi.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-extiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xomashyo va materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkor"³. Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar

² Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. // – T.: O'zbekiston. 2010. – 80 b.

³ Karimov I.A. "2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi". - T: "O'zbekiston", 2012. - 36 b.

hisobiga shakllanadi. Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqligini yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iqtisodiy rivojlantirish ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barxam berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy xolati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjet faoliyatini hamda mahalliy byudjet daromadlari bazasini o'rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Yuqoridagi mazkur holatlar mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning oqilona yo'llari topishni taqoza etadi, bu tanlangan bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va ularni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- mahalliy byudjetlarning byudjet tizimida tutgan o'rni, vazifalari va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish;
- mahalliy byudjetlar shakllanishi va ishlatilishining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- mahalliy byudjetlarning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganish;
- mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlilini amalga oshirish;
- mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi va ularning amaldagi holati tahlil qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish

masalalari yuzasidan bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari va Jizzax viloyati mahalliy byudjeti ishning ob'ekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Mamlakatimiz Byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlaridan va xarajatlaridan samarali foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishning ma'lumotlaridan, tahlil natijalaridan, xulosa va tavsiyalaridan mavzuga oid tadqiqot ishlarini yanada davom ettirishda, "Moliya" yo'nalishi bo'yicha kadrlarni tayyorlashda, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda hamda dars mashg'ulotlarini olib borishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning byudjet–soliq munosabatlarini takomillashtirish xususidagi qarashlari, mahalliy va xorijiy olimlarning byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlaridan samarali foydalanish va bu bilan bog'liq bo'lgan muammolariga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari mazkur Bitiruv malakaviy ishining nazariy asoslarini tashkil etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Davlat Statistika qo'mitasi, Davlat Soliq qo'mitasi va Moliya Vazirligining ma'lumotlari hamda Davlat Soliq qo'mitasining amaldagi yo'riqnomalaridan uslubiy asos sifatida foydalanildi. Shu bilan birga klassik iqtisodiy nazariya, iqtisodiyot transformatsiyasi va iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlaridan samarali foydalanish bo'yicha mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi-olimlarning asarlari Bitiruv malakaviy ishi uchun qo'shimcha uslubiy asos vazifasini bajardi.

Izlanish jarayonida aniq faktlar asosida tadqiqot o'tkazishda statistik va davlat byudjet daromad manbalariga oid ko'rsatkichlar dinamikasini aks

ettirish, ma'lumotlarni guruhlarga ajratish hamda indeks va normativ usullarini hisobga olib ularning tuzilishini o'rganish asosida ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 11 ta jadval, 2 ta rasmdan iborat matndan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, uslubiy asoslari, predmeti, ob'ekti va tarkibiy tuzilishi ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi "Mahalliy byudjetlarning byudjet tizimida tutgan o'rni, vazifalari va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati" deb nomlanib, unda Mahalliy byudjetlarning byudjet tizimida tutgan o'rni, vazifalari va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati, mahalliy byudjetlar shakllanishi va ishlatilishining tashkiliy-huquqiy asoslari, Byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning daromadlaridan samarali foydalanish foydalanishda xorij tajribasi yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi "Mahalliy byudjetlar daromadlari shakllanishi va xarajatlar yo'nalishining tahlili" deb nomlanib, unda Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili, mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi va ularning amaldagi holati tahlili keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini mustahkamlash masalalari bayon qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida mavzu bo'yicha tegishli nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

I BOB. MAHALLIY BYUDJETLARNING BYUDJET TIZIMIDA TUTGAN O'RNI, VAZIFALARI VA HUDUDLARNING IJTIMOIIY- IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

1.1. Mahalliy byudjetlarning iqtisodiy mohiyati va byudjet tizimida tutgan o'rni.

Bizga ma'lumki, mahalliy byudjet - davlat byudjet tizimining alohida bo'g'ini hisoblanadi. Umumdavlat pul mablag'larining byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning asosini, mahalliy byudjetlar mustaqilligi, ularning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobiga shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Bugungi kundagi davlat moliyasini boshqarish islohotlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ular rolini oshirish va shu bilan bir vaqtda moliyaviy ta'minlashni mustahkamlash, butunlay yangi moliya, byudjet va soliq mexanizmini yaratish, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish va mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini ta'minlashning yangi uslubiyoti va tamoyillarini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Mahalliy byudjet mablag'larning egasi sifatida amaldagi me'yoriy xujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy byudjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yilidan) boshlab ularni sarf xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

Mahalliy byudjet ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega.

Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat.

Ikkinchidan, esa bu xarajatlar korxonalarning daromadidan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarda mahalliy byudjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig'irlar hisobiga shakllantiriladi. Bizning respublikamizda ham mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig'irlar tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, ijtimoiy infrastrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda alohida ahamiyatga ega. Mamlakat byudjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Unitar tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi ikki bosqichdan, davlat byudjeti va mahalliy byudjetlardan iborat. Federal tuzilishga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi uch bo'g'indan iborat. Mahalliy byudjetlar davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

Mamlakatimizda byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning xukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Jamlangan byudjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi jamlangan byudjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansida aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jamlangan byudjet ko'rsatkichlari hisobisiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkin emas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari jamlangan byudjetdan olinadi. O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi ikki bo'g'indan iborat.

O'zbekistonda mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o'zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi- mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkibida Respublikasi byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri byudjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. O'zbekiston Respublikasi byudjeti bir butundir, ya'ni byudjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat byudjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tumanlari byudjetlarining uzviy birligini bildiradi (chizma).

Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munitsipal iqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalarini muvofiq ravishda tashkil etish, ishbilarmonlik faolligini oshirish, hamda munitsipal xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har bir sohada iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal byudjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng mana shu o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni, shunindek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro qilish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuvi jarayoni mamlakatimizning ham davlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimiz davlat byudjetining ijrosini rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda joriy

etilgan va qisqa muddat mobaynida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatayotgan g'aznachilik tizimi faoliyatini joriy qilish arafasida turibdi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy byudjetlar tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, byudjetga «bu - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat⁴» deb ta'rif berilishida aynan mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va ularni davlat markazlashtirilgan tartibda amalga oshiradigan chora-tadbirlar bilan to'g'ri muvofiqlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjetga daromadlar kelib turishini va resurslardan maqsadli foydalanishdan manfaatdorlar, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning o'sish sur'atlari mahalliy zaxiralarni safarbar etishga, mablag'larni rejali sarflashga doir ishlarni tashkil etishga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetini muvaffaqiyatli bajarishga imkon yaratadi. O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalarni bajaradi (chizma).

Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy davlat xokimiyat idoralarining moliyaviy faoliyati moliyaviy masalalar sohasidagi qarorlar, farmoyishlar chiqarish, tegishli byudjetlarni tasdiqlash va ijrosini ta'minlash, o'z

⁴ Yo'ldoshev, Y.Tursunov. «Moliya huquqi». Toshkent. «Mehnat». 1999. -24b.

hududidagi davlat idoralari, korxonalari, tashkilotlar, moliyaviy faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish, tegishli ma'muriy hududiy birlik ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi, tadbirlar ishlab chiqish, ularni moliyalashtirish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi shakllarda amalga oshadi.

1.2. Mahalliy byudjetlar shakllanishi va ishlatilishining tashkiliy-huquqiy asoslari

Mamlakatimizda byudjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta mas'uliyatli vazifalarni samarali boshqarilishi talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir. Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olinishidir, ikkinchidan mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy xokimiyat organlarining moliyaviy va xuquqiy rolini oshirish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'zlariga berilgan vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi byudjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, joylardagi vakolatli hokimiyat organlarining qonunlarida

belgilangan doiralarida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq stavkalarini o'zgartirish huquqini qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalari belgilanishi va ular mahalliy byudjetlarga tushishi qonun asosida mustahkamlab qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarni shakllantirishdan manfaatdorligini oshiradi.

Ma'lumki, hozirda huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa mexanizmlar bilan tartibga solinadi. Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun asos bo'ladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani ta'minlash vazifalarini bajaradi. Huquqiy bazalarni ta'minlash yuridik va jismoniy shaxslarga huquq berish va ularni majburiyatlarini belgilash va boshqa sohalarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, mahalliy byudjetlarni samarali boshqarish, huquqiy va iqtisodiy me'yorlarni belgilash va korxonalarining faoliyat ko'rsatishlari uchun tartib-qoidalarini ishlab chiqish tegishli davlat tashkilotlarining asosiy vazifasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda qabul qilingan «Byudjet tizimi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida byudjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan. «Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini, byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar hamda byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi⁵». Byudjet tizimi yagonaligi tamoyili haqida ketayotgan bo'lsa, huquqiy baza, byudjet tasnifi, byudjet hujjatlari shakli, byudjet jarayoni tamoyillari, pul tizimi birligi, Davlat byudjeti mablag'lari bilan hisob yuritish, hisobot tayyorlash va nazorat qilishda yagona tartib amal qiladi. Amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, barcha daromadlar va xarajatlar davlat byudjet tizimi darajalari o'rtasida taqsimlanadi. Byudjet daromadlari va xarajatlarini taqsimlash deganda, har bir darajadagi byudjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi. Byudjet tizimining barcha xarajatlari turli byudjetlar o'rtasida taqsimlanib, bu u yoki bu xarajatni muayyan byudjetga kiritilishini anglatadi. Bu

⁵ O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. //Xalq so'zi. 2000 yil 14 yanvar.

birinchidan moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli bo'lishi, ikkinchidan moliyalashtiriladigan tadbirning ahamiyatidir.

Byudjet orqali moliyaviy ta'minlash yuzasidan munosabatlar ishtirokchilaridan biri-kredit muassasasi hisoblanadi. Kredit muassasasida byudjetdan moliyalash-tiriluvchi tashkilotlar uchun hisobraqam ochiladi. Kredit muassasasi byudjetni kassa ijrosida va moliyaviy intizomga rioya etish yuzasidan nazoratni amalga oshirishda ishtirok etadi. Byudjet orqali moliyalashtirishning uchinchi ishtirokchisi bo'lib byudjet mablag'larini taqsimlovchi byudjet tashkiloti hisoblanadi. U o'z tashkiloti uchun ajratilgan byudjet mablag'larini tasarruf qiladi, ularning o'zidan quyida turadigan taqsimlovchilarga o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi yagona, bir butun mexanizmdan iborat bo'lganligi munosabati bilan Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o'z tasaarufida butun davlat moliyasiga nisbatan aniq belgilangan funktsiyalarni bajaradi. Masalan, ular o'z hududlarida daromadlarning respublika byudjetiga kelib tushishini ta'minlaydi, tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida davlat ehtiyojlari uchun asosiy jamg'armalar va vositalarni olish va qayta ishlash uchun kapital xarajatlarni amalga oshiradi. «Xalq deputatlari kengashlari va hokimiyatlar o'z vakolatlari doirasida tegishli ma'muriy-hududiy birliklar moliyasiga rahbarlik qilinishini ta'minlaydi. Ushbu organlar, xususan, mahalliy byudjetlar loyihalarini ishlab chiqadi, ularni tasdiqdaydi va ijro etadi, shuningdek, mazkur byudjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlaydi, qonunchilikka muvofiq ravishda mahalliy byudjetga kelib tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdori va ular bo'yicha sarflanadigan byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishlari mumkin⁶». Davlatning moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va mahalliy

⁶ Li A. Moliya huquqi. Darslik. Toshkent Davlat yuridik instituti. 2004. -398b.

boshqaruv organlarining barchasi ishtirok etadi, chunki ularning har biri moliya bilan bog'liq bo'lgan muayyan funksiyalarni bajaradi.

Shu bilan birga ular moliyaviy faoliyatining xususiyati va mazmuni bir-biridan farq qilib, bu ushbu organlarning vazifalari va huquqiy holatidagi farqlar bilan belgilanadi. Shularni hisobga olgan holda, davlat moliyaviy faoliyatini amalga oshiruvchi organlarni bir necha guruhlariga ajratish mumkin. O'zbekiston Respublikasining hokimiyat va boshqaruv, markaziy va mahalliy idoralari amalga oshiradigan moliyaviy faoliyat ular oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarga, berilgan vakolatlarga muvofiq turli shaklda amalga oshiriladi.

Mahalliy hokimiyat idoralari hokimlar, xalq deputatlari kengashlari o'z vakolatlari doirasida mahalliy moliya faoliyatini amalga oshiradi. Moliyaviy faoliyati amalga oshiruvchi barcha davlat idoralari qanday darajada bo'lishidan, vakolatlari doirasidan qat'iy nazar mamlakat iqtisodiy va moliyaviy qudratini oshirish, iqtisodiy barqarorlikni va rivojlanishni ta'minlash, mahalliy moliyani mustahkamlash yo'lida harakat qiladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 7-moddasida aytilishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidagina amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va uning asosida chiqarilgan boshqa qonunlarga muvofiq davlatning moliyaviy faoliyati uning xokimiyat, boshqaruv hamda mahalliy xokimiyat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va boshqa qonunlarga muvofiq davlat idoralari tomonidan moliyaviy faoliyat davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi bir qator tamoyillarga, aniq qoidalarga muvofiq ravishda olib boriladi. Bu tamoyillar moliya, kredit, soliq va bank sohasidagi qonunlarda belgilab qo'yilgan.

Davlat xarajatlari sohasidagi huquqiy munosabatlar ularning ishtirokchilari huquqlarining belgilanganligi bilan ajralib turadi. Bu munosabatlarda davlat manfaatlarini ifodalovchi, uning nomidan ish yuritish vakolati berilgan byudjet mablag'lar oluvchilarga nisbatan hokimiyat ta'sirini

o'tkazish usulida ish olib boriladi. Davlat belgilangan tartibda byudjet xisobiga moliyalashtiriladigan xarajat turlarini, me'yorlarini, moliyalashtirish ob'ektlarini belgilaydi, o'z ko'rsatmalarini bajarilmaganda esa aybdorlarga nisbatan qat'iy choralar ko'radi.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so'ng davlatimiz o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini bajarishda byudjet tizimi uni tashkil qilish hamda uning huquqiy-me'yoriy bazasini yaratishdek muhim masala turgan edi. Shu sababdan Prezidentimiz va soha rahbar xodimlari boshchiligidagi ushbu masalaga katta e'tibor qaratildi. Chunki jamiyatning ravnaqi, aholining farovonligi, yurtning tinchligini ta'minlash va boshqa maqsadlarni amalga oshirish, davlatimizning hozirgi kunda byudjet va byudjet siyosatining asosiy ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda byudjet tizimining keyingi rivojlanishini boshqaradigan qonunchilik xujjatlari qabul qilindi, bularga muvofiq quyidagilarni amalga oshirish ko'zda tutilgan edi. Barcha darajadagi byudjetlarning iqtisodiy mustaqillik printsipini targ'ib qilish va ularni alohida shakllanishining me'yoriy asoslarini belgilash. Davlatning kelgusi davrdagi maqsad va vazifalarini moliyalashtirishni ta'minlashning asosi negizi sifatida barcha darajalardagi byudjetlarni tayyorlash, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish jarayoni muddatlari hamda bosqichlari jihatidan kelishilgan har bir bosqichning aniq ijrochilari ko'rsatilgan yagona byudjet tsikli bo'ladi. Belgilangan qat'iy kalendar muddatlari byudjet jarayoni barcha qatnashchilarining muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashlariga ko'maklashadi. Ayrim bosqichlarda muddatlarni o'zboshimchalik bilan belgilash esa butun jarayonni izdan chiqarib yuborishi mumkin. Bu esa birinchi navbatdagi sarf-xarajatlarning o'z vaqtida moliyalashtirilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjet hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish, islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni yanada samarali rivojlantirish ko'p jihatdan moliya tizimiga bog'liq va uning bo'g'inlariga bog'liq. Bu borada davlat moliya siyosati va moliya-byudjet amaliyotining uslubiyoti muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari ichida birinchilardan bo'lib iqtisodiyotni yirik miqyosda isloh qilish, tubdan o'zgartish va jamiyatni yangilash yo'liga o'tdi. O'sha davrda milliy moliya tizimini barpo etish g'oyatda muhim vazifaga aylandi va amalda bu vazifa bajarildi. O'tgan yillar davomida moliya tizimi shunday darajaga etishdiki, buni mamlakatimizda olib borilayotgan samarali islohatlar natijasi deyish mumkin. Byudjet, bank-kredit tizimi Prezidentimiz I.A.Karimovning doimiy diqqat e'tiborida bo'lgan holda quyidagi fikriga to'xtalib o'tsak. "O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarning barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustaxkam zaxiralar yaratilganligini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanligini ta'kidlash joiz"⁷

Byudjet tizimidagi olib borilgan qator islohotlar albatta o'z natijasini bermasdan qolmadi. Chunki, aynan shu islohotlar tufayli davlat byudjeti keyingi yillarda defitsit bilan emas balki oshig'i bilan ya'ni profitsit bilan ijro etilmoqda. Byudjet tizimiga oid qator qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilindi. Bu byudjet tizimining yanada rivojlanishi va takomillashishiga sabab bo'ldi. Birgina misol «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunni olsak, ushbu qonun byudjet tizimida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari bir qator chora – tadbirlar orqali byudjet tizimida ulkan yutuqlarga erishildi. Lekin, yutuqlar bo'lgani bu kamchiliklar, echimini kutayotgan muammolar va masalalar ham yo'q emas. Xozirgi kunda, byudjet tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bu mahalliy byudjetning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, barqarorligini ta'minlash, ularni balans xolatini saqlash, harajatlarini optimallashtirish va shu

⁷ I.A.Karimov. "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent. "O'zbekiston" – 2009 yil.

kabilardir⁸. Darhaqiqat, mahalliy byudjetlarning barqaror bo'lishi uchun ularning biriktirilgan daromadlari ya'ni moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lishi va shuning bilan bir qatorda, mahalliy byudjetlarning harajatlarini optimal xolatga keltirib moliyalashtirilishi darkor. Ta'bir bo'lsa aytish joizki, bugungi kunda jahonning barcha davlatlari iqtisodiyotiga ta'sir qilgan moliyaviy – iqtisodiy inqirozi mamlakatimiz iqtisodiyotini ham chetlab o'tmadi. Ammo, inqiroz mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatiga unchalik ta'sir etmadi. Buning sababi o'z vaqtida 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturining ishlab chiqilgani, davlatimizning oqilona iqtisodiy siyosat olib borganligidir. Buning zamirida mahalliy byudjetlarning o'rni beqiyos. Negaki mamlakatda hududlar qanchalik rivoj topgan bo'lsa, shu davlat iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar sirasiga kiradi. Zero, mahalliy byudjet – davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi, unda daromadlar manbalari va ulardan tushum miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniqlangan maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

1.3. Mahalliy byudjetlarning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati

Hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlarni ta'minlash, shubxasiz mahalliy boshqaruv organlarining mustahkam moliyaviy bazasiga ega bo'lishini taqoza etadi. Ularning eng yirik va asosiy moliyaviy bazasi mahalliy byudjetlar hisoblanadi.

Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratsak “Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa, yoshlar

⁸ Jaxon moliyaviy-iktisodiy inkirozi sharoitida moliya va byudjet tizmini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy amaliy konferentsiya materiallari toplami. Toshkent: «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2010 y.

bandligining, qishloqda hayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish zarur"⁹ Hududiy iqtisodiyot va mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlari masalalarini tadqiq etish mazkur ikki mustaqil yo'nalishning jihatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Bugungi kunda hududiy moliya ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish quroliga aylanib bormoqda.


Hududiy moliya:

- mahalliy ahamiyatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga;
- aholi bandligining oshishini ta'minlashga;
- hududiy xo'jalik kompleksining uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlovchi soha va tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilishga;
- hududdagi aholining zarur ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.¹⁰

Xududiy moliya tizimining tarkibiga quyidagi bo'g'inlar kiradi:

1-rasm

Mahalliy moliyani tarkibiy tuzilishi.¹¹



Mahalliy byudjetlar "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat byudjeti, viloyatlar byudjetlari, viloyatlar byudjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) byudjetlarni o'z ichiga oladi.

⁹ I.A.Karimov. "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent. "O'zbekiston" – 2009 yil. – B. 50.

¹⁰ Поляка Г.Б. Финансы. – М.: Юнити-Дана. 2008. – 703 с.

¹¹ Bitiruv malakaviy ishini yozish davomida talaba tomonidan aks ettirilgan.

Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, byudjet jarayoni va byudjet huquqi qonun bilan belgilangan.

Mahalliy maxsus fondlar – mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tuziladi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qo'shimcha pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Ularga:

- mahalliy hukumat organlarining maxsus mablag'lar bo'yicha hisob raqami;
- “Mahalla fondi” kabilar kiradi.

Horijiy davlatlarda mahalliy hokimiyat organlari ihtiyoridagi maxsus pul fondlari soni va mahalliy moliya tizimidagi salmog'i ancha yuqori bo'lib, ular avtonom mustaqillikka egaligi, markaziy hukumat tomonidan qattiq nazoratga tortilmasligi, doimiy yoki vaqtinchalik, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab tuzilishi bilan xarakterlanadi.

Hududiy iqtisodiyot muammosini ilmiy talqin etishda ikki xil yondoshuv mavjud:

1. Mazkur muammoga hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlar mavjudligi bois davlatning qoloq hududlarni qo'llab-quvvatlashi zarurligini ta'kidlash nuqtai-nazaridan yondoshish.

2. Mazkur muammoga har qaysi hudud o'zi egalik qilayotgan iqtisodiy imkoniyatlardan yanada ko'proq va hatto o'zi foydalanishi zarurligini, har qaysi hudud o'z ijtimoiy muammolarini o'zi hal qilishini yoqlash orqali yondoshish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bugungi kundagi o'ta mas'uliyatli holati hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangidan-yangi muammolarini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Hozirgi kunning global vazifalarini hal etishning samarali usullarini qidirib topishga intilishgina emas, balki iqtisodchi-olimlar diqqat-e'tiborini jahon iqtisodiy xazinasini durdonalaridan iborat butun «pragmatik» potentsialdan, jumladan, jahon miqyosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish konseptsiyasining uslubiy, metodologik, nazariy ahamiyatini o'rganishga qaratish ham muhim hayotiy zaruriyatdir.

Bozor iqtisodiyotining transformatsiyasi sharoitida uning hududiy elementini mavjudligi hududiy jihatlarni hisobga olgan holda makroiqtisodiy siyosatning kutilayotgan va haqiqatdagi natijalarini qiyoslashga majbur etadi¹². Makroiqtisodiy tahminlashtirishning umumiy qonuniyatlari nuqtai-nazaridan mutloq to'g'ri hisoblangan holatlar hududiy tizimda o'ziga xos maxsus ahamiyat kasb etishi va aniq olingan hudud manfaatlari nuqtai-nazaridan boshqacharoq talqin etilishi mumkin. Mamlakat miqyosidagi umumiy holat va hududiy iqtisodiyotni qiyoslashda shuni alohida ta'kidlash mantiqiy o'rinli bo'ladiki, bunda hududda umuman jamiyat turmush darajasi barqarorligi ta'minlanishi va shu bilan bir vaqtda hududiy tizim barqarorligi ham e'tiborga olinishi kerak. Amaliyotda mazkur dolzarb masalani respublika markaziy hukumati hal qiladi. Markaz uchun hudud maqroiqtisodiy tizim va maqroiqtisodiy tartibga solish ob'ekti sifatida maydonga chiqadi.

Hududlar taraqqiyotining xususiyatlari ham sifat ko'rsatkichlari – rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari, xo'jalikning bazaviy tarmoqlari, ixtisoslashuv va h.k., ham miqdoriy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Zero, ayrim asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha, masalan, yo'l ta'minoti bo'yicha, suv ta'minoti va hududiy rivojlanishning boshqa sharoitlari bo'yicha, aholining ijtimoiy-infratuzilmaviy ta'minoti va ular tomonidan ijtimoiy xizmatlar iste'moli bo'yicha turli hududlar «foizlarda» emas, balki hatto «martalarda» bir-biridan farq qilmoqda.

Ijtimoiy yangilanishlarning har qanday konsepsiyasi agar u «umumiy ahamiyat» g'oya shaklini olmasa inqirozga yuz tutadi, amalga oshirish muddatlari ishonchsiz bo'ladi va turmush tarzining pasayishiga olib keladi. Davlat siyosatining maqsadlari mazmunli xususiyat kasb etishi va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim. Ushbu maqsadlar qatoriga so'zsiz tarzda, quyidagilar kiritiladi: iqtisodiy o'sish, xalq turmush sharoitining ko'tarilishi, hayot sifat belgilarining yaxshilanishi, mamlakat xo'jalik sub'ektlari va fuqarolar havfsizligining ta'minlanishi.

¹² Vaxobov A.V. Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ko'p ukladlilik. T.: Sharq, 2003., 66-b.

Hududlarning moliyaviy imkoniyati ularning resurs potentsialining xususiyatlariga, tabiiy shart-sharoitlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xo'jalik tuzilishi va ixtisoslashuviga, hududlararo aloqalarning balansliligiga bog'liq bo'ladi. Biroq, bularga qaramasdan hududlar moliyaviy resurslarni shakllantirish va ishlatishda teng mustaqillikka ega bo'lishlari kerak.

Hududlarning moliyaviy-byudjet rivojlanishi istiqbollari belgilanayotganda imkon doirasida shunga e'tiborni qaratish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ma'muriy usullardan holi, yuqori organlarning aralashuvisiz, asosan, hududda yaratilgan va jalb qilingan mablag'lar hisobidan hal etilishi kerak.

Hududda barcha sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- hudud mahalliy byudjeti daromadlar qismining barqarorligini iqtisodiy potensialni samarali rivojlantirish asosida ta'minlash;
- mahalliy byudjetlar uchun daromadlar manbalari va ajratmalar stavkalari tizimini, shuningdek ularning amalga oshiradigan funksiyalariga mos ravishda xarajatlar turlarini qat'iy belgilash;
- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida korxonalar va tashkilotlarning, hududda joylashgan davlat korxonalirining, shuningdek aholining va chet el investorlarining mablag'larini jalb qilish va muvofiqlashtirilgan holatda ishlatish.

Xududlar moliyaviy resurslari tarkibida mahalliy hokimiyat organlarining to'la tasarrufida bo'lgan mahalliy byudjetlar mablag'lari asosiy o'rinni egallaydi. Mahalliy byudjetlarning asosiy daromatlari soliqlar va yig'implardan tashkil topadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini tashkil etish Soliq Kodeksi asosida amalga oshiriladi. Unga muvofiq mahalliy byudjetlarga to'lanadigan soliqlar va yig'implar, ularning to'lovchilari va imtiyozlar tarkibi berilgan.

Mahalliy byudjetlarning solikli daromatlari tarkibida barqaror baza bo'lib mol-mulk solig'i xizmat qiladi, chunki u bo'yicha tushumlar ho'jalik

faoliyatining natijalariga sezilarli bog'liq bo'lmaydi hamda yuridik va jismoniy shaxslar mulkining bahosi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiyot muammolari va mahalliy byudjetlarni boshqarish amaliyoti hozirgi holatining tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

- O'zbekiston Respublikasida mahalliy moliyalarning amal qilishi va rivojlanishi hududiy iqtisodiy siyosat konseptsiyasiga asoslanadi;

- muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish uchun hududiy moliyaviy siyosat to'lovga qobil talabni va uning hududiy taqsimlanishini prognozlashtirishni, hududiy moliya bozorlarini o'rganishni, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini baholashni, hududlarning o'z moliyaviy potentsiali rivojlanishini rag'batlantirishni o'z ichiga olishi kerak;

- O'zbekiston Respublikasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hamda tabiiy-juyorofiy joylashuvidagi xususiyatlaridan kelib chiquvchi tafovutlar davlatning mahalliy byudjetlarni boshqarish siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadiki, buning natijasida mahalliy byudjet bo'g'inlari o'rtasida byudjet majburiyatlarining taqsimoti mezonlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Mazkur tafovutlar turli hududlar byudjet majburiyatlarining bir muncha yuqori va ayrimlarida esa, hatto, moliyaviy imkoniyatlarning taqsimotidagi keskin yetishmovchilikni keltirib chiqaradiki, ushbu holatlar davlatning mahalliy byudjetlarni boshqarish siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etadi;

- mahalliy byudjetlarning byudjet tizimida tutgan o'rni va ahamiyati amaldagi byudjet qonunchiligi doirasida ular faoliyatini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonunida ushbu asoslar timsolida mahalliy byudjetlar imkoniyatlari shakllanishi va ularni samarali boshqarish yo'nalishlari uchun zamin yaratilgan. Biroq, mamlakatimizda byudjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitidagi hamda byudjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashdagi davlat tadbirlari va

ularning real ijrosi xali bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini tasdiqlamoqda.

Umuman, hududiy iqtisodiyot muammosining mahalliy byudjetlarni shakllantirish va boshqarish amaliyoti uchun bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning imkoniyatlarini muttasil yaxshilab borish zarurligini belgilovchi qator jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- davlatning u yoki bu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolarini hal etish yuzasidan siyosatini mukammallashtirish hududlar taraqqiyotidagi tafovutlarni samaradorligini rag'batlantirish orqali manfaatdorligini saqlagan holda bartaraf etishga asoslanishi lozim;

- yagona yondoshuv davlatning yaxlit siyosatidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik asosida barcha hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni qamrab olishi va imkon qadar ularni hal etishni ta'minlashi kerak;

- tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bir xil bo'lgan hududlarda samaradorlikning rag'batlantirilishi orqali tabaqalangan holda yondoshuv zarur;

- davlat siyosatining strategik va taktik vazifalaridan kelib chiqib, davlat ko'magiga muxtoj hududlar uchun maxsus imtiyozli rejim saqlanib qolishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi darajasiga qarabgina o'zgartirilishi mumkin;

- mintaqaviy rivojlanish dasturlari va hududlar taraqqiyotining istiqbollari muvofiqlashtirilishi hamda mazkur davrda davlat siyosatining keskin o'zgarishlari chuqur tahlil etilishi va keng xalq ommasiga yetkazilishi lozim.

I Bob bo'yicha xulosalar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning o'rni, ahamiyati va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari o'rganish natijasida quyidagi hulosalarga kelindi.

1. Mahalliy byudjet ob'ektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega.

Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat.

Ikkinchidan, esa bu xarajatlar korxonalarning daromadidan tashkil topadi.

2. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy xokimiyat organlarining moliyaviy va xuquqiy rolini oshirish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, byudjetlarning mustaqilligi byudjet tizimining asosiy tamoyili sifatida belgilangan bo'lib ushbu tamoyil turli darajadagi vakolatli hokimiyat organlarining o'zlariga berilgan vakolatlari doirasida byudjet jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqlarini anglatadi. Har bir darajadagi byudjet daromadlarining o'z manbalari, shuningdek, joylardagi vakolatli hokimiyat organlarining qonunlarida belgilangan doiralarida mahalliy soliqlar va yig'imlar soliq stavkalarini o'zgartirish huquqini qonun asosida mustahkamlab qo'yilgan. Daromadlar manbalari belgilanishi va ular mahalliy byudjetlarga tushishi qonun asosida mustahkamlab qo'yilishi mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligi va byudjetlarni shakllantirishdan manfaatdorligini oshiradi.

II BOB. MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARI SHAKLLANISHI VA XARAJATLAR YO'NALISHINING TAHLILI

2.1. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab ehtiyojlarni tuliqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi.

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi muhim ahamiyatga molikdir. Bu yerda Prezidentimizning fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir: "Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash zurrur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi mas'uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarni yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi".¹³

Mahalliy byudjetlarning davlat byudjet siyosatidagi tutgan o'rni mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, bu mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va o'z qaramog'idagi hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko'paytiradi. Shuningdek,

¹³ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: "O'zbekiston", 1995, 208-bet


mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliqlar va tushumlar doirasida moliya siyosatini yurgizishda imkoniyat berilishi resurslarni samarali boshqarishga rag'bat uyg'otadi.

Ammo mahalliy hokimliklarga soliq vakolatlarini berish bilan birga ularning aholi oldida hisobot berishini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni ham hisobga olish kerak, aks holda berilgan vakolatlar ziyon keltirishi mumkin.

O'zbekistonda mahalliy byudjet daromadlarining asosiy manbasi mahalliy soliq va yig'imlar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar va yuqori byudjetlardan tushumlardir.

2-rasm

Mahalliy byudjetlar daromadlarining guruhlanishi¹⁴



Har yili davlat byudjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliqq daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Biroq bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini istisno qiladi.

Har yili davlat byudjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliq daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Fikrimcha, bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir. Biz yuqorida mahalliy byudjet daromadlari haqida umumiy ma'lumot oldik. Endi mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'ini tahlil qilish uchun quyidagi 1–jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

1- jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari keyingi yillarda zanjirli ravishda o'sib borgan. Shuningdek, bir vaqtning o'zida mahalliy byudjetlarning daromadlari davlat byudjeti daromadlariga nisbatan ancha ildamroq oshgan, ya'ni 2011 yilda mahalliy byudjetlar daromadlari 6924409,3 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 8535616,1 mln. so'mni ya'ni Davlat byudjeti daromadlariga nisbatan 41,4% ni tashkil qilgan. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjetidagi salmog'i Respublika byudjetining davlat byudjetidagi salmog'iga nisbatan past bo'lib

qolmoqda, 2013 yilda bu ko'rsatkich 10497431,0 mln. so'mni tashkil etib, jami Davlat byudjeti daromadlariga nisbatan 41,8% ni tashkil etishi kutilmoqda. Shunga qaramasdan, 2013 yilda Respublika byudjeti daromadlarining Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushining pasayishi ijobiy holat hisoblanib, bu esa o'z navbatida mahalliy byudjetlar daromadlar bazasining mustahkamlanishiga olib keladi.

1 -jadval.

Mahalliy byudjet daromadlarining 2011-2013 yillardagi dinamikasi tahlili¹⁵.

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2011	2012	2013 (reja)
O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari	16178563,5	20614100,0	25104900,0
Respublika byudjeti daromadlari	9254154,2	12078483,9	14607469,0
Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%)	57,2	58,6	58,2
Mahalliy byudjetlar daromadlari	6924409,3	8535616,1	10497431,0
Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%)	42,8	41,4	41,8

Barchamizga ma'lumki, mahalliy byudjetlarning eng muhim, asosiy daromad manbayi bo'lib mahalliy soliq va yig'imlar hisoblanadi. Ular hozirga qadar mahalliy byudjet daromadlarini o'sishiga qarab mutanosib ravishda shakllantirilib, takomillashtirilmoqda. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq turli soxalarda amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan isloxotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy byudjetlarning mavqeyini oshirish borasidagi chora-tadbirlarning aniq yo'nalishi mahalliy byudjetning daromad manbayini mustahkamlashga qaratilgandir.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibida o'zgarishlar nafaqat son jixatdan, shuning bilan birgalikda, mohiyat jihatidan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrda PQ-1449, 2011-yil 30 dekabrda PQ-1675 va 2012-yil 25 dekabrda PQ-1887 son qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda. Mahalliy soliqlarning 2010 - 2013 yillardagi tahlilini quyidagi 2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

2 - jadval

Mahalliy soliqlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi (2011-2013 yillar)¹⁶

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil (reja)	
	mln.so'm	jamiga nisbatan % da	mln.so'm	jamiga nisbatan % da	Mln.so'm	jamiga nisbatan % da
I. Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz – jami	16178563,5	100,0	20614100,0	100,0	25104900,0	100,0
<i>Shundan, mahalliy soliqlar- jami</i>	1798336,4	11,1	2089800,0	10,1	2720100,0	10,8
1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'i	530632,6	3,3	446400,0	2,2	659900,0	2,6
2.Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500,0	2,3
3. Mol- mulk solig'i	490536,2	3,0	642000,0	3,1	831400,0	3,3
4.Yer solig'i	346862,9	2,1	446000,0	2,2	646300,0	2,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mahalliy soliqlar bo'yicha davlat byudjetiga tushum 2011 yildagi 1798336,4 mln.so'mdan 2012 yilda 2089800,0mln. so'mga oshgan. Shunga mos ravishda 2011 yilda jami davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlar 11,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2012

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrda PQ-1449, 2011-yil 30 dekabrda PQ-1675 va 2012-yil 25 dekabrda PQ-1887 son qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

yilda esa mahalliy soliqlarning jami davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 10,1% ni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan ulushi birmuncha pasaygan. Lekin shunga qaramasdan, 2013 yilda mahalliy soliqlar 2720100,0 mln.so'm bo'lib, davlat byudjeti daromadlarida salmog'I 10,8 % ni tashkil etishi kutilmoqda.

Yuqoridagi tahlilga binoan shuni aytish mumkinki, mahalliy byudjetlarning daromad qismi umumdavlat va mahalliy soliqlar hisobiga shakllanadi. Respublikamizda mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig'imlar bilan bog'liq muammolar markazida ularning mahalliy byudjetlar xarajatlarini to'liq miqdorda moliyalashtira olmasligidadir. Shuning uchun ham umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalar, ya'ni tartibga solinadigan soliqlardan to'liq yoki qisman ajratmalar belgilash tizimi amal qiladi. Umumdavlat soliqlarning mahalliy byudjetlarga biriktirilish me'yorlari hududlarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasida nomutanosiblikdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Mahalliy byudjetlarni boshqarish samaradorligini oshirishning muhim vazifalaridan biri u yoki bu hududlar ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlari darajasini byudjet resurslari bilan ta'minlanganligi darajasiga o'zaro bog'liq holda olib borishdan iborat. Albatta, ehtiyojlarning o'sib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti kabi ob'ektiv umumiy iqtisodiy qonunlarning amal qilishi ob'ektiv reallik va zaruriyat bo'lganidek hamda u yoki bu hudud ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotini ta'minlash uchun davlat byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishda aynan shu masalalarga asosiy etiborni qaratadi. U yoki bu hudud, mahalliy byudjetining byudjet tizimida tutgan o'rni, avvalo, mazkur mahalliy byudjetning daromadlari va harajatlari tarkibining optimalligiga, mazkur hudud iqtisodining mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishdagi ulushiga, ushbu hudud aholisi dinamikasi va boshqa strategik makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga hamda boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Mahalliy byudjetning soliq daromadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mol mulk solig'i;
- yer solig'i;
- jismoniy shaxslar tomonidan mashinalar uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun olinadigan soliq;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromadlariga soliq;
- mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadlariga qat'iy belgilangan soliq.

Bu mahalliy soliqlardan tashqari mahalliy byudjetga tartibga soluvchi soliq daromadlari bo'yicha ham tushumlar kelib tushadi. Ular mahalliy byudjetning iqtisodiy potensialidan kelib chiqqan holda umumdavlat soliqlarining ma'lum foizini ajratish hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarda 2011-2013 yillarda umumdavlat daromadlari va soliqlaridan ajratmalar me'yori bo'yicha 3-jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilsak, ayrim viloyatlarga ajratmalar me'yori 2011 yilga nisbatan 2013 yilda oshirilgan bo'lsa, ayrimlarda kamaytirilgan. Jadval ma'lumotlaridan yana shuni ko'rish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida Toshkent shahri va viloyati, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlaridan tashqari barcha viloyatlarda ajratmalar me'yori 100 foizga teng. Bu yerda hududlarni tenglashtirish maqsadida soliqlarning taqsimot vazifasi katta rol o'ynamoqda. Kam rivojlangan hududlarda soliq tushumlari ushbu hududlar hisobida qolmoqda.

3 -jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar (2011-2013) yillar¹⁷

Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i			Savdo va umumovqatlanish korxonalarining yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar			Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, mikrofirma va kichik korxonalar bilan birga			Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i			Qo'shilgan qiymat solig'i			Alkogol mahsuloti (etil spirtidan tashqari)			Yer qaridan foydalanuvchilar uchun soliqlar		
	2011	2012	2013	2011	2012	2013	2011	2012	2013	2011	2012	2013	2011	2012	2013	2011	2012	2013	2011	2012	2013
Qoraqalpog'iston R.	100	100	100	100	100	50	50	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Andijon v.	100	100	100	100	100	50	50	50				100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Buxoro v.	55	53	55	100	100	50	50	50				100	100	100	100	50	50	50	55	53	55
Jizzax v.	100	100	100	100	100							100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Qashqadaryo v.	90	65	52	100	100	50	50	50				100	100	100	100	100	100	100	90	65	52
Navoiy v.	62	61	66	100	100			50				100	100	100	100	62	61	66	62	61	66
Namangan v.	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Samarqand v.	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Surxandaryo v.	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Sirdaryo v.	100	100	100	100	100	100	100	100				100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Toshkent v.	65	62	57	100	100	50	50	50				100	100	100	100	50	50	50	65	62	57
Farg'ona v.	83	93	98	100	100	50	50	50				100	100	100	100	100	100	100	83	93	98
Xorazm v.	100	100	100	100	100	50	50	50				100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Toshkent sh.	5	5	5	5	5	50	50	50				5	5	5	5	5	5	5	5	5	5

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrda PQ-1449, 2011-yil 30 dekabrda PQ-1675 va 2012-yil 25 dekabrda PQ-1887 son qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalar me'yorlari viloyatlar va soliqlar bo'yicha differensiyalashgan bo'lib, xap yili qayta ko'rib chiqiladi. Bu me'yorlar moliyaviy yil boshlangunga qadar, umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning umumiy hajmi bo'yicha qabul qilingandan so'ng o'rnatiladi

Respublikamiz soliq tizimida mavjud mahalliy soliq va yig'implarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayt etish mumkin:

mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyoji uchun ishlatiladi.

ularning asosiy qismi mahalliy byudjetlarning bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi;

ularning huquqiy jixatdan tartibga solishda mahalliy byudjetlaga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishini talab etadi va boshqalar.

Shuningdek mahalliy soliq va yig'implarning muxim xususiyatlaridan biri, ularni belgilash usuliga ko'ra ikki guruxga, yani respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan va mahalliy davlat hokimiyati idoralari qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishidir.

Byudjetlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash nuqtai nazaridan soliqlarning bo'linishi va ularni byudjetning ma'lum bo'g'iniga biriktirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz quyidagi fikrni bildirganlar: «Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir».¹⁸

¹⁸ ¹Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: «O'zbekiston», 1995. 208-b

Mahalliy byudjetlarning xarajatlarini daromadlari bilan taqqoslash hamda uning dotatsiya yoki subvensiyadan foydalanish natijalariga qarab “o‘z daromad bazasi bilan ta‘minlanganlik” ko‘rsatkichini aniqlash mumkin. Byudjet tizimida mahalliy byudjetlar bo‘g‘inining va ayniqsa, bir bo‘g‘indagi mahalliy byudjetlarning yuqori byudjet bo‘g‘ini bilan munosabatlarini tashkil etishda mahalliy byudjetlarning donor turini (o‘z mablag‘ini hisobiga boshqalarni ta‘minlaydigan) yoki retsipient turini (o‘z daromad bazasi yetishmasdan boshqa byudjetlar) farqlash lozim.

Ayni vaqtda mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi quyidagicha:

- 1) Mahalliy soliqlar.
- 2) Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar.
- 3) Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi tafovutni qoplashga qaratilgan byudjet dotatsiyasi.
- 4) Mahalliy byudjetda ko‘zda tutilgan maqsadli xarajatlarni amalga oshirishga qaratilgan subvensiya.

Umumdavlat soliqlaridan yuridik shaxslarning daromad (foyda)lariga soliq, jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq, qo‘shilgan qiymat solig‘i va aktsiz solig‘i tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari deb atalib, har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo‘yicha tegishli byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadigan soliqlardir.

“Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq byudjet munosabatlarida turli byudjetlar o‘rtasida taqsimlanadigan quyidagi mablag‘lar qaysi byudjetlardan yo‘naltirilayotgan bo‘lsa, shu byudjetlar xarajatlari tarkibiga, qaysi byudjetga borib tushayotgan bo‘lsa, shu byudjetlar daromadlari tarkibiga kiritiladi:

1. tasdiqlangan miqdorlar doirasida byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari.
2. byudjet ssudalari va ularning qaytarilishi.

3. yuqorida ta’kidlangan qonunga va tegishli yilning Davlat byudjetiga muvofiq amalga oshiriladigan boshqa o’zaro hisob kitoblar.

4-jadval

Mahalliy byudjetlarni o’z-o’zini daromad bilan qoplashi¹⁹

(%da)

Hududlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Qoraqalpog’iston Respublikasi	46,7	49,2	49,4
Andijon viloyati	51,6	55,2	52,1
Buxoro viloyati	100,0	100,0	100,0
Jizzax viloyati	40,9	46,2	47,7
Qashqadaryo viloyati	100,0	100,0	100,0
Navoiy viloyati	100,0	100,0	100,0
Namangan viloyati	40,8	44,2	48,7
Samarqand viloyati	44,8	47,2	45,3
Surxondaryo viloyati	41,7	47,7	46,5
Sirdaryo viloyati	70,2	69,8	61,3
Toshkent viloyati	100,0	100,0	100,0
Farg’ona viloyati	100,0	100,0	100,0
Xorazm viloyati	53,4	52,6	51,7
Toshkent shahri	100,0	100,0	100,0
Jami	71,5	72,9	72,6

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rishimiz mumkinki, Respublikamiz Mahalliy byudjetlarining aksariyati o’zini o’zu qoplash imkoniyati yo’q.

¹⁹ O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

Mahalliy byudjetlardan mahalliy davlat boshqaruvi organlarining hududiy iqtisodiy va ijtimoiy xayotni boshqarish va tartibga solish quroli sifatida keng foydalaniladi.

5-jadval

Jizzax viloyati mahalliy byudjet daromadlari ijrosining dinamikasi²⁰

mln.so'm

Hududlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Arnasoy	686,2	1 369,9	1 478,1	2 598,8	3 894,7	2 647,1
Baxmal	1 249,2	2 831,4	3 838,6	4 960,6	6 438,5	7 598,6
G'allaorol	2 223,3	4 063,8	5 369,5	7 269,5	8 883,0	11 113,6
Jizzax t	3 192,7	6 250,2	8 099,2	11 710,3	8 362,1	11 974,2
Do'stlik	3 689,8	4 473,8	4 734,6	9 708,4	5 539,4	5 661,5
Zomin	2 572,4	4 496,7	6 510,1	8 739,0	9 125,6	11 481,4
Zarbdor	2 262,6	4 143,0	5 018,0	6 521,7	6 327,8	5 950,1
Zafarobod	1 438,9	2 435,3	2 554,5	5 646,7	3 809,6	4 516,5
Mirzacho'l	1 378,1	2 363,7	2 708,5	3 665,5	5 570,7	5 093,3
Paxtakor	2 969,4	3 533,0	5 309,4	8 343,7	5 901,9	9 590,1
Forish	1 353,0	2 460,9	3 100,5	5 509,0	4 851,9	5 488,9
Yangiobod	207,1	527,4	699,1	945,4	1 314,0	1 672,6
Jizzax shaxar	6 452,4	12 256,2	16 031,8	19 771,3	17 374,8	19 434,3
Viloyat byudjeti	13 066,1	27 752,9	34 412,9	39 689,5	71 028,0	106 022,0
Jami	42 741,1	78 958,1	99 864,8	135 079,4	158 422,2	208 244,2

²⁰ Jizzax viloyati moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlarini taxlil qiladigan bo'lsak, Jizzax viloyati maxalliy byudjet daromadlari yildan yilga o'sish tendentsiyasiga ega. 2007 yilda maxalliy byudjet daromadlari 42741,1 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib 208244, mln so'mni tashkil etgan.

Jizzax viloyati tumanlari misolida qaraydigan bo'lsak, asosiy maxalliy byudjet daromadlarining ko'p qismi Jizzax shaxar, tuman va G'allaorol tumanlariga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. 2012 yilda Jizzax shaxar maxalliy byudjet daromadlari 19434,3 mln so'mni tashkil etgan.

Byudjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarning har qanday ko'rinishdagi taqsimlanishi vertikal(tik) va gorizontal(bo'ylama) mutanosibsizlikka olib kelishi mumkin. Byudjetning vertikal mutanosibsizligi(dibalansi) mahalliy byudjet xarajatlarining o'z manbalaridan oladigan daromadlaridan oshib ketishidir Byudjetning gorizontal dibalansi esa, turli darajadagi byudjetlarda daromad va xarajat qoldiqlarining o'zgarib turishidir. Byudjet dibalansining mavjudligi davlatlarining o'tish davridagi xos xususiyat emas. Xususan gorizontal dibalans xarajatlar hajmidagi ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy aktivlik, tabiiy resurslar va demografik omillarning geografik notekis taqsimlanishi oqibatidir. Malumki, gorizontal va vertikal dibalansni tenglashtirish, tekislash maqsadida Respublika byudjetidan, mahalliy byudjetlarga turli shakldagi moliyaviy yordamlardan foydalaniladi. Bular dotatsiya, subvensiya va maqsadli subsidiyalardir.

Mahalliy byudjetlarning bu daromad turining o'ziga xos tomonlari mavjud. Yuqori byudjetlardan ajratiladigan subvensiya, dotatsiya va subsidiyalar boshqa daromad turidan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, yani bu daromad turlariga yil davomida o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Dotatsiya (lotincha, dotatio – hadya, xayr-ehson) byudjetni tartibga solish usuli sifatida o'z daromadlari va byudjetni tartibga solishning boshqa mablag'lari, xususan, tartibga soluvchi daromadlaridan ajratmalar yetishmagan

taqdirda xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qat'iy summada beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'laridir¹.

Subvensiya (lotincha, subvenire – yordamga kelish) yuqori byudjetdan quyi byudjetga muayyan maqsadlarda foydalanish sharti bilan beg'araz ajratiladigan pul mablag'laridan iborat.

6-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarda 2013 -yilda rejalashtirilgan daromad va xarajatlarning taqsimlanishi va ularda dotatsiya va subvensiyalarning tutgan o'rni²¹ (mln.so'm)

№	Hududlar	Daromadlar		Xarajatlar		Markazlashgan investitsiyalar uchun subvensiyalar va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan daromad	
		Mln. so'm	%	Mln. so'm	%	Mln. so'm	%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	485014,8	4,6	939840,2	6,6	454825,4	12,3
2	Andijon viloyati	635705,0	6,1	1178798,2	8,3	543093,2	14,7
3	Buxoro viloyati	804003,2	7,6	804003,2	5,7		
4	Jizzax viloyati	294886,3	2,8	608909,5	4,3	314023,2	8,6
5	Qashqadaryo viloyati	1245654,2	11,9	1245654,2	8,7		
6	Navoiy viloyati	526199,9	5,0	526199,9	3,7		
7	Namangan viloyati	556423,1	5,3	1087581,8	7,7	531158,7	14,4
8	Samarqand viloyati	729092,6	6,9	1500597,5	10,6	771504,9	20,9
9	Surxandaryo viloyati	514861,4	4,9	1071092,0	7,6	556230,6	15,1
10	Sirdaryo viloyati	268682,4	2,6	421179,4	3,0	152497,0	4,1
11	Toshkent viloyati	1190387,8	11,3	1190387,8	8,4		
12	Farg'ona viloyati	1520697,1	14,5	1520697,1	10,7		
13	Xorazm viloyati	417226,7	4,0	781321,1	5,5	364094,4	9,9
14	Toshkent shahri	1308596,5	12,5	1308596,5	9,2		
	Jami	10497431,0	100,0	14184858,4	100,0	3687427,4	100,0

¹ A.Jo'raev. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. -Toshkent: "Fan" nashriyoti 2004 yil. 182 bet.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887 son Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mahalliy byudjetlarni balanslashtirish maqsadida soliqlar va boshqa ko'rinishidagi daromadlar manbalarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tamoyillarga asosan taqsimlash amalga oshiriladi:

- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromadlar taqsimlanishi yagona tamoyillar va yondashuvlar asosida barqaror ravishda bo'lishi;
- har bir darajadagi byudjet bo'g'inining o'z daromadlari ularga biriktirib qo'yilgan xarajatlar vakolatlarini bajarish uchun asosiy resurslar manbai bo'lib qolishi;
- soliq vakolatlari va daromad manbalari taqsimlanishi byudjetning vertikal (byudjet bo'g'inlari o'rtasida) balanslashuvi tamoyillariga asoslanishi;
- tartibga soluvchi soliqlardan tushadigan tushumlarning bir qismi mahalliy byudjetlar o'rtasida shakllangan usullar asosida (aholi soni bo'yicha, byudjet taminoti bo'yicha va h.k.) taqsimlanishi mumkin.

2.2. Mahalliy byudjetlar xarajatlari tizimi va ularning amaldagi holati tahlili.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng davlatning moliya-soliq siyosatini muhim yo'nalishlaridan biri moliya tizimini va uning bo'g'inlarini isloh qilishdan iborat bo'ldi. Ushbu yo'nalishdagi muhim muammolardan biri - davlat moliyasini, shu jumladan, byudjet tizimini takomillashtirishdan iborat. Shu ma'noda "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi hozirgi kun talabi va muhim hayotiy ehtiyojdir. Ushbu qonun ma'lum ma'noda davlat byudjet siyosatining asoslarini, byudjet tizimi bo'g'inlarining hayot tarzini, byudjet-soliq aloqadorligidagi dialektik bog'liqlikning yangi jihatlarini ochib beruvchi

me'yoriy-huquqiy asos sifatida baholash mumkin. Darhaqiqat, bu sohadagi davlat mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunga bo'lgan ehtiyoj ancha sezilarli tus olgan edi. «Byudjet tizimi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining alohida bo'limi turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar deb nomlangan va unda byudjetlararo munosabatlarning huquqiy asoslari yoritilgan. Ushbu bo'limdagi asosiy moddalardan biri 13-modda bo'lib, unda davlat byudjeti mablag'larini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida qayta taqsimlash asoslari ko'rsatilgan.

Mahalliy byudjet xarajatlarini tahlil qilishdan oldin byudjet xarajatlarining byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishini aniqlab olish lozim. Ko'plab xarajat vakolatlari boshqaruv organlarining ikki bo'g'ini – respublika va mahalliy boshqaruv organlari orasida bo'linadi. Bunda xarajatlar uchun aniq reglamentlash va chegaralangan javobgarlikning yo'qligi yangi tashkil kilinayotgan muassasalar byudjeti manbasini aniqlashda anglashilmovchilikka olib keladi, boshqaruv organlarining byudjet mablag'ini ishlatishdagi mas'uliyatini mavhumlashtirib, aholiga xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, hayotimizni erkinlashtirish yo'nalishlarining yana bir muhim yo'li-markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlashdir. “Mamlakat byudjeti daromad qismining 56 foizini va xarajat qismining 52 foizini hududiy byudjetlar tashkil etmoqda. Agar barcha boshqaruv masalalari moliyaviy yo'l bilan hal etilishini nazarda tutadigan bo'lsak, mana shu raqamlar hududiy hokimiyat tuzilmalari vakolatlari kengaytirish borasida qilingan ishlar salmog'ini yaqqol ko'rsatib turibdi”²².

²² Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. 2002 yil 30 avgust.

Mahalliy byudjet xarajatlarini tahlil qilishdan oldin byudjet xarajatlarining byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishini aniqlab olish lozim. Ko'plab xarajat vakolatlari boshqaruv organlarining ikki bo'g'ini - respublika va mahalliy boshqaruv organlari orasida bo'linadi. Bunda xarajatlar uchun aniq reglamentlash va chegaralangan javobgarlikning yo'qligi yangi tashkil qilinayotgan muassasalar byudjeti manbasini aniqlashda anglashilmovchilikka olib keladi, boshqaruv organlarining byudjet mablag'ini ishlatishdagi mas'uliyatini mavhumlashtirib, aholiga xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib keladi.

Byudjet federalizmi nazariyasida qayd qilinishicha, eng yaxshi samaradorlik saylanadigan mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'z xarajatlari haqida o'zlari qaror qabul qilgan va ularni mahalliy soliqlar hisobiga qoplaganida yuzaga keladi.

Boshqacha qilib aytganda, markazlashtirishning barcha afzalliklarini qo'lga kiritgan holda mahalliy hokimiyat xarajatlar vakolatlarini kengaytirish, uni tegishli moliya resurslari va soliq daromadlari bilan mustaxkamlash hamda ulardan foydalanish sohasida vakolatlarini kengaytirish kerak.

Davlat byudjetining mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tarzda qayta taqsimlanadi:

- umumdavlat soliqlari va boshqa umumdavlat daromadlari bir qismining belgilangan me'yorlarida turli daraja byudjetlariga ajratilishi;
- yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga byudjet subvensiyalari va dotatsiyalarining ajratilishi;
- yuqori byudjet bo'g'inidan quyi byudjet bo'g'inlariga, quyi byudjet bo'g'inlaridan yuqori byudjet bo'g'inlariga byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keluvchi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larning yo'naltirilishi;
- byudjet ssudalarining ajratilishi.

Ma'lumki, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari davlat byudjeti parametrlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunday ajratmalar miqdori quyidagilarga bog'liq:

- hududlar moliyaviy holatiga, jumladan, ularni o'z daromad bazalarining yetarligiga;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalari va dasturlariga;
- hududlar bo'yicha tovar (ish, xizmat)lar qiymatidagi farqlarga;
- har qaysi hududlar aholisining soniga;
- ushbu hududda joylashgan tashkilotlarning byudjet ajratmalariga bo'lgan ehtiyojiga;
- hududlar o'rtasidagi moliyaviy nomutanosiblik (tafovut)ni bartaraf etish uchun hisobga olinadigan boshqa omillarga.

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar mablag'lari tasdiqlangan byudjet doirasida xarajat qilinadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag'lar ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi²³:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlardan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlarining joriy xarajatlari shaklida;
2. Joriy byudjet trasfertlari shaklida;
3. Kapital xarajatlar shaklida;
 - asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;
 - davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;
4. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

²³ O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni. 19-modda.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rejadagi daromadlaridan kelib chiqadi, hududlar esa o'z xarajatlarini rejalashtirishda ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Byudjet jarayonida mahalliy byudjetlarning eng maqbul xarajatlari rejasi aniqlanadi, bu reja esa byudjetning daromadlar bazasidan kelib chiqadi. Ba'zi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida mahalliy byudjetlar xarajatlari me'yor asosida amalga oshiriladi. Hozirgi bosqichda mahalliy byudjetlar xarajatlarini jon boshiga to'g'ri keldigan me'yorlar asosida sohalar bo'yicha aniqlash, bunda tuman koeffitsiyentlarini hisobga olish eng oddiy va alternativ usulga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunining 23-moddasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

1. Fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha).
2. Ijtimoiy ta'minot.
3. Aholini ijtimoiy himoya qilish.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash.
5. Iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash.
6. Qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish.
7. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Shuningdek, mahalliy hokimliklarning moliyaviy mustaqilligini kengaytirish maqsadida "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunning 32-35 moddalariga muvofiq yil boshida mahalliy byudjet hisob raqamida shakllangan erkin qoldiq va choraklar yakunida daromadlarning rejadan oshirib bajarilgan qismini turli

ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlarga yo'naltirish huquqi belgilangan. Ayni vaqtda mahalliy byudjetlarning xarajatlar tarkibida ijtimoiy-madaniy tadbirlar xarajatlari juda tez sur'atlarda fan, ta'lim, sog'liqni saqlashga xarajatlarning oshishi tufayli ko'paymoqda, bu esa shu byudjetdan moliyalashtiriladigan ijtimoiy soha muassasalari ko'payishi va ilmiy- tekshirish ishlarini kengayishi, ma'muriy-territorial kompleksning rivojlanishi, mahalliy xo'jalikni boshqarishni avtomatlashtirilishi bilan bog'liq bo'ladi.

Bizga davlat byudjeti fanidan ma'lumki, mahalliy byudjet xarajatlari obyektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u hudud xalq xo'jaligi tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. Ikkinchidan, bu xarajatlar korxonalarning daromadlaridan tashkil topadi. Mahalliy hokimiyat byudjet mablag'larining egasi sifatida amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet to'g'risidagi qonunda belgilanadigan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Byudjet xarajatlariga hudud hokimiyati, mahalliy boshqaruv organlari, moliya-kredit organlari tizimi orqali ta'sir etish tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan sarf-xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr davomida yuz berib turadi. Xarajatlarni rejalashtirishda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalaridan biri- byudjet mablag'larini taqsimlashda kompleks maqsadli moliyalashtirish va barcha darajadagi byudjet mablag'lardan samarali foydalanishga erishish uchun pul mablag'larini taqsimlashda mutanosiblikka amal qilishdan iboratdir.

Umuman olganda, davlat byudjeti xarajatlarida mahalliy byudjet xarajatlari salmoqli ulushga ega bo'lib, biz buni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetlar xarajatlarining O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlaridagi salmog'i 2011-2013 yillardagi dinamikasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mahalliy byudjet xarajatlari 2011 yilda davlat byudjetiga nisbatan 55,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 54,2 % ni tashkil etgan. 2013 yil mahalliy byudjet xarajatlari davlat byudjetiga nisbatan 53,9 foiz

bo'lishi rejalashtirilgan. Bu esa hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun qilinayotgan xarajatlarni imkon qadar mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtirish borasidagi tadbirlari natijasidir.

7 - jadval.

Mahalliy byudjet xarajatlarining 2011-2013 yillardagi dinamikasi tahlili²⁴

(mln.so`m)

Ko`rsatkichlar	Yillar		2013 (prognoz)
	2011	2012	
O`zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari	16 991 100,0	21 571 700,0	26 312 400,0
Respublika byudjeti xarajatlari	7 497 041,6	9 882 644,6	121 27 541,6
Davlat byudjetiga nisbatan salmog`i (%)	44,1	45,8	46,1
Mahalliy byudjetlar xarajatlari	9 494 058,4	11 689 055,4	14 184 858,4
Davlat byudjetiga nisbatan salmog`i (%)	55,9	54,2	53,9

Biz bilamizki, O`zbekistonning mustaqillik yillaridagi islohotlarining dastlabki bosqichlarida, Respublika byudeti mahalliy byudjetlaridan ustun mavqeda turdi. Biroq, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida dolzarb masala byudjet komponentlarining o`zaro munosabatlari haqida emas, balki Respublika byudjetining funksional rolini qisqartirish va mahalliy byudjetlarning asl funksiyalarini shakllantirish masalasi turdi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini baholashning nisbatan asoslangan usuli ovqatlanish uchun xarajatlarning tibbiy me`yorlarini, ta`lim sohasida uslubiy materiallar va bitta o`qituvchiga to`g`ri keladigan o`quvchi soni me`yorlarini, byudjet tashkilotlari uchun kommunal xizmatlari xarajatlari bo`yicha limitlarni va boshqalarni hisobga oluvchi yagona davlat me`yorlari asosida xarajatlarni moliyalashtirish maydonga chiqadi.

²⁴ O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrda PQ-1449, 2011-yil 30 dekabrda PQ-1675 va 2012-yil 25 dekabrda PQ-1887 son qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

8- jadval

Davlat byudjeti xarajatlari dinamikasi²⁵

Ko'rsatkichlar	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	YaIM nisbatan %da	jamiga nisbatan %da	YaIM nisbatan %da	jamiga nisbatan %da	YaIM nisbatan %da	jamiga nisbatan %da
Xarajatlar, davlat maqsadli jamg'armalarisiz - jami	21,7	100,0	21,5	100,0	22,3	100,0
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari - jami	12,7	58,1	12,5	58,0	13,0	58,1
1. Maorif	7,2	33,3	7,2	33,4	7,5	33,5
2. Sog'liqni saqlash	2,8	12,8	2,9	13,3	2,9	13,1
3. madaniyat va sport	0,3	1,2	0,2	1,1	0,2	1,1
4. Fan	0,1	0,6	0,1	0,7	0,1	0,7
5. oilalarga ijtimoiy nafaqalar	2,1	9,8	1,8	8,2	2,0	8,8
Iqtisodiyotga xarajatlar	2,4	11,3	2,5	11,6	2,5	11,0
Markazlashtirilgan investitsiyalar	1,4	6,4	1,4	6,5	1,1	4,9
O'zini o'zi boshqarish organlari xarajatlari	0,2	0,9	0,2	0,9	0,2	0,9
Zaxira jamg'armalari	0,1	0,4	0,1	0,2	0,1	0,3
Boshqa xarajatlar	4,9	22,5	4,9	22,7	5,3	23,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining salmog'i yuqori bo'lmoqda. Xususan, ushbu xarajatlar 2012 yilda jami byudjet xarajatlarida 58 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan bo'lsa, jami byudjet xarajatlaridagi ulushi 59,2 foizni tashkil etishi ko'zda tutilgan. Demak, ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar, birinchidan, nominal mazmunda va shuningdek, umumiy xarajatlar salmog'ida ham ortib bormoqda.

2013 yilda yurtimizda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibida 8984,6 milliard so'm hajmidagi mablag'lar ta'lim-

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari.

tarbiya sohasiga sarflanishi rejalashtirilgan bo'lib, xarajatlarning asosiy qismini tashkil etgan. Qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun 374,7 milliard so'm miqdorida mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

9-jadval

2013 yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining tarkibi²⁶

Oilalarga ijtimoiy nafaqalar	1839,9
Ijtimoiy ta'minot	197,3
Ilm-fan	173,1
Madaniyat va sport	279,1
Sog'liqni saqlash	3768,6
Qishloq joylarda uy-joylar qurishni hamkorlikda moliyalashtirish uchun kredit liniyalari	374,7
Ta'lim	8984,6

Amalga oshirilayotgan islohotlarda aholining turmush farovonligini va daromadlarini izchil oshirib borish ustuvor ahamiyatga ega bo'lmoqda. Ushbu sohadagi islohotlar 2013 yilda ham davom ettirilib, davlat byudjetidan jami 1839,9 milliard so'm mablag' ayni shu maqsadlar uchun ajratilishi rejalashtirilgan.

2012 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar miqdorini bosqichma-bosqich ko'paytirish davom ettirilib, ish haqini inflyatsiya darajasidan yuqori bo'lgan miqdorda oshirish uchun Davlat byudjetidan 1,3 trillion so'm mablag' ajratildi. 2012 yilning 1 yanvaridan boshlab yagona tarif setkasini qayta ko'rib chiqish va mehnatga haq

²⁶Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 25 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг 2013 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида”ги ПҚ-1887-сонли қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 йил, 52-сон, 587-модда

to'lashning bazaviy darajasini birinchi razryad miqdorida belgilash amalga oshirildi.

Biroq, byudjet xarajatlarini yagona davlat me'yorlari asosida (ijtimoiy jihatdan maqbul va ilmiy asoslangan) mahalliy byudjetning real daromadlari bilan bog'lanmagan holda rejalashtirish hozirgi vaqtda byudjetning xarajatlar qismini daromadlar qismidan sezilarli darajada ortib ketishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ta'kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me'yorlarini hozirgi sharoitda qo'llash xarajat moddalari bo'yicha mahalliy byudjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo'yicha moliyalashtirishdarajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Ushbu amaliyot shuni anglatadiki, byudjet tizimi bo'g'inlari faoliyatining huquqiy asosi bo'lmish «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun o'zining «belgilangan xarajat yo'nalishlari va hajmlari bo'yicha mablag'larni taqsimlash»ni ta'minlay olmasligi oqibatida tegishli funksiyasini bajara olmayotir. Buning natijasida mahalliy moliya organlari va Moliya Vazirligi o'rtasida mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirish yuzasidan kelishmovchilik va nomutanosibliklar saqlanib qolayotir. Bundan tashqari byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqbul va asoslangan davlat me'yorlari ma'lum ijtimoiy standartlar (iste'mol byudjeti minimumi, yashovchanlik minimumi va h.k.)ning ham qonuniy tarzda tasdiqlanishini talab etadiki, bu holat yaqin kelajakda yagona davlat me'yorlarini qo'llashning imkoniyatlari cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Byudjet xarajatlarini taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi «davlat zaruriyati» tufayli respublika byudjetidan mahalliy byudjetlar ixtiyoriga yoki mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o'tkaziladigan xarajatlar o'zaro hisob-kitoblarga qo'yilmoqda.

10-jadval**Jizzax viloyati mahalliy byudjet xarajatlari ijrosining dinamikasi²⁷***mln.so'm*

Hududlar	2007 yil	2008 yil	2009 yil	2010 yil	2011 yil	2012 yil
Arnasoy	2 916,2	5 412,8	7 248,6	9 562,7	11 439,8	17 497,6
Baxmal	7 257,1	14 505,4	19 642,1	26 102,9	31 922,8	42 026,8
G'allaorol	8 081,0	17 047,6	23 346,0	31 546,4	38 110,4	54 051,9
Jizzax t	8 715,5	17 454,0	23 931,0	32 497,7	39 196,0	50 456,4
Do'stlik	3 548,5	6 497,6	8 716,3	11 678,6	13 962,0	20 866,8
Zomin	8 082,2	17 752,4	23 423,0	30 566,2	38 419,5	51 017,4
Zarbdor	4 294,3	9 778,2	11 423,1	14 877,7	18 676,3	27 231,4
Zafarobod	3 131,4	6 051,4	7 879,1	10 483,2	12 626,0	16 651,9
Mirzacho'l	3 380,7	5 975,3	8 139,1	10 793,8	13 251,4	21 121,5
Paxtakor	3 725,7	7 135,9	9 698,4	13 417,2	16 333,1	21 897,8
Forish	5 781,5	11 353,0	14 833,7	19 987,2	23 966,9	29 885,7
Yangiobod	1 761,9	3 535,4	5 029,7	6 604,6	8 528,0	10 492,7
Jizzax shaxar	7 134,8	14 759,3	19 690,0	27 052,7	31 717,1	39 496,6
Viloyat byudjeti	31 989,6	54 650,8	87 591,7	86 326,1	115 643,6	133 725,0
Jami	99 800,3	191 909,0	270 591,8	331 497,0	413 792,7	536 419,6

Jadval ma'lumotlarini taxlil qiladigan bo'lsak, Jizzax viloyati maxalliy byudjet xarajatlari yildan yilga o'sish tendentsiyasiga ega. 2007 yilda maxalliy byudjet xarajatlari 99 800,3 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2012 yilga kelib 536 419,6 mln so'mni tashkil etgan.

²⁷ Jizzax viloyati moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jizzax viloyati tumanlari misolida qaraydigan bo'lsak, asosiy maxalliy byudjet daromadlarining ko'p qismi Jizzax shaxar, tuman va G'allaorol tumanlariga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. 2012 yilda Jizzax shaxar maxalliy byudjet xarajatlari 39496,6 mln so'mni tashkil etgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda aytishimiz mumkinki, Jizzax mahalliy byudjet xarajatlari daromadlariga qaraganda 2,5 martadan ortiqqligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

11- jadval

Jizzax viloyati mahalliy byudjetlarining 2012 yil ijrosi²⁸

mln.so'm

Hududlar	Daromadlar			Xarajatlar		
	Aniqlang an reja	Ijro	foizda	Aniqlang an reja	Ijro	Foizda
Arnasoy	2 491,0	2 647,1	106,3	17 497,5	17 497,6	100,0
Baxmal	7 551,0	7 598,6	100,6	42 165,6	42 026,8	99,7
G'allaorol	11 074,0	11 113,6	100,4	54 074,6	54 051,9	100,0
Jizzax t	11 562,4	11 974,2	103,6	50 432,4	50 456,4	100,0
Do'stlik	5 639,2	5 661,5	100,4	20 874,9	20 866,8	100,0
Zomin	11 432,0	11 481,4	100,4	51 008,9	51 017,4	100,0
Zarbdor	5 907,4	5 950,1	100,7	27 224,5	27 231,4	100,0
Zafarobod	4 471,9	4 516,5	101,0	16 667,9	16 651,9	99,9
Mirzacho'l	5 050,4	5 093,3	100,9	21 138,2	21 121,5	99,9
Paxtakor	9 528,3	9 590,1	100,6	21 900,8	21 897,8	100,0
Forish	5 484,5	5 488,9	100,1	30 035,9	29 885,7	99,5
Yangiobod	1 666,5	1 672,6	100,4	10 549,0	10 492,7	99,5
Jizzax shaxar	18 858,1	19 434,3	103,1	39 399,4	39 496,6	100,2
Viloyat byudjeti	102 975,2	106 022,0	103,0	133 156,4	133 725,0	100,4
Jami	203 691,8	208 244,2	102,2	536 126,1	536 419,6	100,1

²⁸ Jizzax viloyati moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2012 yilda mahalliy byudjet ijrosi 100 foizdan ortiq qilib bajarilganini ko'rishimiz mumkin. Shunday bo'lsada ba'zi tumanlar rejani to'liq bajarmaganligini ham qayd erib o'yish kerak.

Byudjet amaliyotidagi hozirda mavjud bo'lgan ushbu holat byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajat vakolatlarining asoslangan va adolatli tizimi yaratilmaganligini tasdiqlaydi. «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun ushbu xarajatlarni mahalliy byudjetlar zimmasiga yuklatilishini ko'rsatadi. Biroq, ushbu xarajatlarning mahalliy byudjetlarga ular daromad bazasini tegishli tarzda oshirmay turib biriktirilishi byudjet ssudalariga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib keladiki, ularni berish amaliyoti qaytaruvchanlik muammosining keskinligi tufayli nomaqbuldir.

Xozirgi vaqtda maxalliy xokimiyat organlarining ma'muriy xududlarni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish yuzasidan huquq va majburiyatlari tobora ortib bormoqda. Bu esa ularning moliyaviy bazalarini yanada kengaytirish va mustaxkamlashini ob'ektiv zuriyatiga aylantirib qo'yadi.

Keyingi 10 yillikda ko'pchilik davlatlarda iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarni mahalliyliklashuvi yuz bermoqda. Bu jarayonlarni boshqarish tobora markaziy xokimiyatlardan mahalliy xokimiyatlarga o'tmokda. Shu sababi mahalliy moliyalarning ro'li kuchaymoqda, ularni qo'llanish doirasi kengaymoqda.

Mahalliy moliyalar orqali davlat ijtimoiy siyosatini faol tarzda amalga oshiradi. Mahalliy moliya organlariga tegishli pul mablag'larini berish orqali mahalliy xalq ta'limini, sog'liqni saqlashni, axoliga kommunal xizmat ko'rsatishni moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Byudjet daromadlarini Respublika byudjeti va mahalliy byudjet o'rtasida aniq taqsimlash va ularni ustidan nazorat qilishning samarali tizimini yuzaga keltirish xozirgi davrda dolzarb masalalaridan biridir. Bunda asosiy

masalalardan biri umumdavlat soliqlardan ajratmalar me'yorini qanday belgilash masalasidir.

Shuni ta'kidlash lozimki, xozirgi vaqtda Respublikamiza mahalliy byudjetlarning xududi qishloq xo'jaligi bilan o'zaro munosabati aloxida axamiyat kasb etadi. Chunki Respublika milliy daromadining 40 foizidan shu soxalarda yaratiladi. Xozigi kunda jamoa xujaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining mahalliy boshqaruv organlari bilan iqtisodiy aloqalari cheklangan xarakter kasb etadi. Chunki ularning foydadan to'laydigan solig'i mahalliy byudjetlar daromadlarining 2-3 foizidan oshmaydi. Buni asosiy sababi shundaki, qishloq xo'jaligi korxonalarining asosiy qismi zararga ishlayotgan korxonalardir.

II bob bo'yicha hulosalar

Bitiruv malakaviy ishimizning mahalliy byudjetlarlar daromadlari shakllanishi va ulardan samarali foydalanish holati taxlil qilish jarayonida quyidagi xulosalar shakllandi:

1. Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, haligacha eski usuldan foydalanib kelinmoqda. Ya'ni qat'iy soliqlar avval davlat byudjetiga, undirilib, so'ngra uning ma'lum bir foizi (har yili qayta ko'rib chiqilgan holda) mahalliy byudjetlar daromadlarini moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Bizningcha, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilayotgan davrda belgilangan foizlarga kamida 5 yil davomida o'zgartirish kiritilmasligi lozim. Bundan tashqari umumdavlat soliqlaridan tushadigan tushumning ulushi bu soliqlardan ajratiladigan foiz miqdori byudjet daromadlarini $1 \div 3$ qismidan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Shundagina mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy manfaatdorligi oshib, ularning byudjet daromadlari mustahkamlanishi ta'minlanadi.

2. Mahaliy byudjetlar xarajatlarini rejalashtirishda O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rejadagi daromadlaridan kelib chiqadi, hududlar esa o`z xarajatlarini rejalashtirishda ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Byudjet jarayonida mahalliy byudjetlarning eng maqbul xarajatlari rejasi aniqlanadi, bu reja esa byudjetning daromadlar bazasidan kelib chiqadi. Ba`zi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida mahalliy byudjetlar xarajatlari me`yor asosida amalga oshiriladi.
3. Mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini ta`minlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, bu mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va o`z qaramog`idagi hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko`paytiradi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliqlar va tushumlar doirasida moliya siyosatini yurgizishda imkoniyat berilishi resurslarni samarali boshqarishga rag`bat uyg`otadi.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BYUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

3.1 Mahalliy byudjetlar daromadlarining barqarorligini ta'minlash masalalari.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash maqsadida tartibga soluvchi daromadlar tarkibi va me'yorlari bo'yicha ushbu yondoshuvlar tahlili asosida O'zbekiston Respublikasi byudjet amaliyotida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim, deb hisoblaymiz:

- tartibga soluvchi daromadlar taqsimotida hududlarning iqtisodiy salohiyati va mahalliy byudjetlar bo'g'ini zimmasidagi byudjet majburiyatlarining ortib borayotganligi omili albatta hisobga olinmog'i kerak;

- tartibga soluvchi daromadlar tarkibida qat'iy me'yor sifatida va 100 %li miqdorda mahalliy byudjetlar zimmasida qoldirilishi rejalashtirilayotgan soliqlar bo'yicha tadbir ularni biriktirilgan daromad tarkibida rejalashtirish uchun asos bo'lmasligi kerak, chunki bunda umumdavlat soliqlarining moliyaviy tabiati va ularning doimiy xususiyatga ega emasligi yo'l qo'ymaydi;

- tartibga soluvchi daromadlar me'yorlarini qo'llashda mahalliy byudjetlarni rag'batlantirish vositasidagi iqtisodiy manfaatdorlik tamoyili ham to'liq hisobga olinishi lozim.

Mahalliy hokimiyat organlarini soliqlar bo'yicha yig'implarni ko'paytirish va mos ravishda subvensiyalarni va yuqori byudjetdan olinadigan boshqa shakllardagi moliyaviy yordamlarni qisqartirishda faolligini va manfaatdorligini oshirish maqsadlarida, rejalashtirilgandan ortiq yig'ilgan soliqlarni taqsimlashni aniq va tushunarli mexanizmi zarurdir. Bu mahalliy byudjetga rejalashtirilgan ko'rsatkichlardan ortiq yig'ilgan soliqlar ulushini aniqlash va qonuniy tasdiqlashni taxmin qiladi. Hozirgi vaqtda ushbu soliqlarni

taqsimlash respublika yoki mahalliy byudjetlarning joriy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan mutlaqo tushunarsiz usulda amalga oshiriladi.

Tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalarning 60 % miqdorida umumiy me'yorlarida rag'batlantiruvchi samarani kuchaytirish maqsadida, rejadan ortiq tushumlar uchun ham mahalliy byudjetlarning ko'shimcha manfaatdorligini hisobga oluvchi me'yorlarni belgilash kerak bo'ladi.

Rejalashtirilgan va rejadan ortiq tushumlar uchun ma'lum bir davrga belgilangan yagona barqaror me'yorlarni joriy qilishda mahalliy byudjetlarni daromadini barqarorligini va mahalliy hokimiyat organlarini manfaatdorlik omilini hisobga olgan holda subvenqsiyalarni ko'paytirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliq bo'yicha tushumlarni ularni yig'ishni yaxshilash hisobiga oshirish bilan qoplanishi mumkin. Ushbu omilni ma'lum bir vaqtdagi bilan amalga oshirish mumkin bo'ladi, chunki, agar, soliqlarni yig'ishni yaxshilash darhol natija bersa, mintaqaning soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha choralar soliqlar bo'yicha tushumlarni ma'lum bir vaqt o'tgandan keyin (1-2 yil) ko'paytirish imkonini beradi.

Yuqorida bayon qilinganlarni umumlashtirilgan holda tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash bo'yicha taklif qilingan mexanizmning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini tasdiqlovchi quyidagi dalillarni keltirish mumkin.

Mahalliy byudjetlarga tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalarning yagona me'yorlari quyidagilarni ta'minlaydi:

- byudjetning mukammalligini;
- mahalliy byudjetlarning daromad bazasini shakllantirishning barqarorligini;
- mahalliy byudjetlarni istiqbollarni belgilashning yaxshilanishini;
- soliq tushumlarini ko'paytirish, byudjet boqimandalarini qisqartirish va mintaq hududida soliq salohiyatini kengaytirishga manfaatdorlik;
- byudjet parametrlarini ishlab chiqishda kelishish amaliyotini

qisqartirish.

Ma'lum bir davrga tasdiqlangan yagona me'yor asosida rejadan ortiq soliq tushumlarini taqsimlash quyidagilarga imkon beradi:

- rejalashtirilgandan ortiq soliqlarni yig'ishga qiziqishni oshirishga;
- respublika va mahalliy byudjetlarni daromad bazasini mustahkamlashga va mos ravishda subvensiyalar hajmini qisqartirishga.

Yuqori iqtisodiy va soliq salohiyatiga ega bo'lgan viloyatlarning byudjetdagi ortiqcha mablag'larini 10:90 nisbatda taqsimlash quyidagilarga yo'naltirilgan:

- daromadlari xarajatlaridan ortiq bo'lgan viloyatlar hududida soliq solinadigan bazani kengaytirish va ko'paytirishga, soliqlarni yig'ishga bo'lgan manfaatdorlikni saqlab qolishga;
- balanslashtirilgan byudjetga yoki soliq yig'imlarini oshirishda unchalik katta bo'lmagan taqchillikka ega bo'lgan viloyatlarda rag'batlantiruvchi sharoitlarni tashkil qilishga.

Ma'lum bir davrda barqaror bo'lgan tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalarning yagona me'yorlari, moliyaviy yordamni taqsimlashda, vertikal va gorizontal disbalansni tenglashtirish hisobga olingan holda moliyaviy yordamning eng qulay shakllarini tanlash va asoslashga yondoshishlarni isloh qilish nuqtai nazaridan muhimdir.

Ma'lumki, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari va uning alohida hudud ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti masadlarida tushgan soliq va daromadlarni qayta taqsimlash va ishlatish yuzasidan iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Mahalliy hudud iqtisodiyotining qaror topishi va uning moliyaviy mustaqillikka ega bo'lishi uchun byudjetni mustaqil shakllantirish huquqigina emas, balki uni boshqarish huquqi ham zarur.

Mahalliy hudud iqtisodiyotini soliq mexanizmi asosida tartibga solish bo'yicha:

- birinchidan, hududiy o'z-o'zini moliyaviy boshqarishda soliqlarni me'yoriy tartibga solish;
- ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi;
- uchinchidan, mustaqil hududiy iqtisodiyotda iqtisodiy islohotlar tizimi;
- to'rtinchidan, hududiy iqtisodiyotda mahalliy hokimiyat organlari mas'uliyati muhim omil sanaladi.

Respublika byudjeti orqali mablag'larni kqayta taqsimlanishining amaldagi tartibi, aholi jon boshi sonini hisobga olib, ushbu daromadning tabaqalanishi nima sababli yuzaga kelganligidan qat'iy nazar mahalliy byudjetlar daromadlarini tenglashtirishga qaratilgandir. Ammo, respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida soliqlarni taqsimlash mexanizmida soliqlarni hududlararo eksportini hisobga olmaslik soliq va byudjet tizimlarini amal qilish samaradorligini pasaytiradi, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona iqtisodiy muhitni shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Soliq tizimi va byudjet tuzilishini shakllantirishning eng asosiy muammolaridan biri bo'lib bir xil darajadagi iqtisodiy sub'ektlar byudjetlari o'rtasida soliqni taqsimlashga bir tomonlama yondoshuvni ta'minlash hisoblanadi. Mahalliy byudjetlar o'rtasida soliqni taqsimlashga yagona yondoshuv soliqlarning teng bazasi mahalliy byudjetga teng ravishdagi soliqli tushumlarni beradi. Bizning fikrimizcha, byudjetlar o'rtasida soliqni taqsimlashning ikki xil turini ajratib ko'rsatish mumkin: yopiq va ochiq.

Yopiq holatdagi taqsimlashda barcha yig'iladigan soliqlar davlat boshqaruv organlari tasarrufida qoladi. Bu holatda byudjetga tushumlar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- hududlarda olinadigan foydaning hajmiga;
- rezidentlar tomonidan olinadigan daromadlar summasiga;
- hududlarning iste'mol hajmi va tizimiga;
- hududda joylashgan mol-mulkka.

Byudjetlar daromadlarining o'lchami omillar ma'lumotlaridan aniqlanadi. soliqlarning mahalliy byudjetlarga nisbatan bunday tartibda taqsimlanishi, hududlarni soliqlarni yig'ish borasida bir xil sharoitga keltirishga va hududiy byudjetlarning solikli daromadlarini hududlarda mavjud bo'lgan soliq bazalari va haqiqiy rezidentlarga yuklatiladi, ularning soliq yukiga nisbatan tenglashtirishga yordam beradi.

Soliqlarning byudjetlar o'rtasida taqsimlanishining ochiq turi soliqlarni yuqori hukumat organi tomonidan qayta taqsimlanishidir. Ochiq turdagi taqsimlanish sharoitida mahalliy byudjetlar tushumlari hududlararo savdo, ma'lum darajadagi soliqlarning va yuqori hukumat organlari soliqlarining o'zaro aloqadorligiga bog'liqdir. Hududlararo savdoning miqdor va sifat tavsifi, mahalliy byudjet solikli to'lovlarni yuritish yo'li orqali yuqori byudjetga to'lanadigan soliqlar summasining kamayishi soliqlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlanishiga asos bo'ladi, soliqlarni qayta taqsimlanishi iqtisodiyotda butunlay byudjet-soliq tizimini amal qilishiga bevosita ta'sir etadi. Rezidentlar uchun soliqlar qiymati va soliqqa tortish darajasi bo'yicha mahalliy hukumat organlarining differentsiallasuvi daromadlarni hududiy xususiyatga asoslangan holda aholi o'rtasida qayta taqsimlanishiga yordam beradi va ishlab chiqarishni joylashtirishga o'z samaradorligini pasaytirib ta'sir etadi.

Soliqlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash muammosini nazariy ravishda quyidagi yo'llar bilan yechish mumkin: soliq tizimiga o'zgartirish kiritish bilan, byudjet tuzilishini o'zgartirish yoki birinchi va ikkinchi yo'llarni qo'shish orqali. Bunda eng maqsadga muvofiq keladigan qaror, bu soliqlarni taqsimlashni maqbul mexanizmini ishlab chiqishdir, ya'ni byudjet tuzish salohiyatini ishlatilishidir. U umumdavlat soliqlarining bir qismini o'tkazish me'yorlarini byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida soliqlarni qayta taqsimlanishini bartaraf etish dastagi va barcha hukumat organlarini solikli daromadlarini aholi jon boshi hisobiga tengligida emas, balki solikli daromad

olishda tengligini ta'minlash sifatida foydalanish lozim.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalarni hisobga olgan holda tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash tizimini isloh qilishdagi birinchi darajali tadbir — bu ma'lum muddatga (5 yilga) yagona barqaror me'yorlar joriy etilishi lozim, deb hisoblaymiz.

Mahalliy hokimiyat organlarini soliq yig'imlarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va subvensiyalarni hamda boshqa moliyaviy yordam turlarini qisqartirish maqsadida, bizning nazarimizda, rejadan ortiqcha tushgan soliq summalarini taqsimlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak. Bunda rejadan ortiqcha soliq tushumlarini mahalliy byudjetlarda qoldirish me'yorlarini ishlab chiqish va qonuniy tasdiqlash kerak. Hozirgi vaqtda rejadan ortiqcha tushumlar respublika va mahalliy byudjetlarning joriy ehtiyojlaridan kelib chiqib, umuman tizimlanmagan usulda taqsimlanmoqda. Yagona barqaror me'yorlar joriy etilganda subvensiyalarning oshishi keyinchalik soliq tushumlarining ham oshishi bilan koplanishi mumkin. Bu omil ma'lum vaqt tafovuti bilan amalga oshadi, chunki soliq tushumlarini oshirish soliq tushumlarini ma'lum bir vaqt (1-2 yil) o'tgandan keyin ko'paytiradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, tartibga soluvchi daromadlar taklif qilinayotgan tartibining quyidagi ustunliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

birinchidan, byudjetning oshkoraligini oshiradi;

ikkinchidan, davlat byudjeti daromad qismining barkaror va bir maromda shakllanib borishini taminlaydi;

uchinchidan, davlat byudjeti tahminlarining yanada reallashuvini keltirib chiqaradi;

to'rtinchidan, soliq tushumlarini ko'paytirishga qiziqishning keskin ortishiga va byudjet boqimandalarini qisqartirilishi va soliq salohiyati oshishiga zamin yaratadi;

beshinchidan, byudjet parametrlarini ishlab chiqishdagi kelishuvchilik

amaliyotining keskin kamayishiga shart-sharoit yaratadi.

Rejadan ortiqcha soliq tushumlarini ma'lum vaqt mobaynida tasdiqlangan yagona me'yor asosida taqsimlash quyidagi ijobiy tendensiyalar vujudga kelishiga imkon beradi:

rejadan ortiqcha soliqlar tushumidan manfaatdorlikni oshiradi;

respublika va mahalliy byudjetlarning daromad bazalarini mustahkamlaydi va subvensiyalarni kamaytiradi.

Yuqori iqtisodiy va soliq salohiyatiga ega bo'lgan viloyatlar byudjet daromadlarining xarajatlaridan oshib ketgan qismini yuqoridagi mutanosiblikda taqsimlanishi quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- soliqlarni yig'ishdan manfaatdorlikni yuqori darajada saqlab qolish, ularni ko'paytirish va hududda soliq bazasini yanada kengaytiradi;

- munosiblangan byudjetga ega bo'lgan yoki kichik miqdordagi byudjet taqchilligiga ega bo'lgan hududlarni soliq tushumlarini oshirishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

3.2 Mahalliy byudjetlar xarajatlarini samarali boshqarish va ularning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini oshirish yo'nalishlari.

Mahalliy byudjetlar xarajatlariga qattiq byudjet cheklovlarini qo'llash bir vaqtning o'zida, soliq tushumlarining o'sishini ham hisobga olishi va yetarlicha byudjet mustahkamligi hamda sharoitga moslashuvchanlikni ham talab etadi.

Bugungi kunda respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajat majburiyatlaridagi cheklovlar egiluvchan, biroq bir tizimga solinmagan ko'rinishga egadir. «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun bilan respublika va mahalliy byudjetlardan tarmoqlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishning cheklovlari va qonuniy mustahkamlanishi amalga oshirilgan. Biroq, qonunda keltirilgan cheklovlar respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarini moliyalashtirish jarayonidagi ma'lum nomutanosibliklarni bartaraf qilmaydi.

Moliya Vazirligi va hududiy moliya boshqarmalari o'rtasidagi

kelishmovchiliklar mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirish bosqichidayoq yuzaga keladi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirishda Moliya Vazirligi mavjud ikoniyatlardan, ya'ni taxmin qilinayotgan daromadlardan kelib chiqadi. Hududlar darajasida xarajatlarni taxminlashtirish joylardagi real ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshiriladi, bu esa mos ravishda Moliya Vazirligi taxminlarini oshirib yuboradi. Markaz va hududlar moliyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish jarayonida mahalliy byudjetlar xarajatlarining optimal taxmini aniqlanadiki, ushbu miqdor daromad bazasidan kelib chiqadi.

Bunday yondoshuv «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun bilan ham mustahkamlab qo'yilgan, vaholanki, mazkur qonunga muvofiq mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi. Shunga mos ravishda mahalliy byudjetlarning xarajatlari subvensiyalarni ham hisobga olgan holdagi daromadlardan ortib ketmasligi amaliyoti talab etiladi.

Mahalliy byudjetlarni taxminlashtirishga yondoshuvlardagi va markaziy hamda mahalliy organlar tomonidan yagona yondoshuvni qo'llashdagi nomutanosibliklarni mahalliy byudjetlar xarajatlarini qat'iy me'yorlar asosida taxminlashtirishda bartaraf qilish mumkin.

2000 -yilda tegishli tarmoqlar va byudjet xizmatlari iste'molchilarining soni bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlardan kelib chiqib hisoblanuvchi moddalar (tarmoqlar) bo'yicha xarajatlarni qat'iy belgilangan me'yorlar orqali taxminlashtirishga o'tishga urinish bo'lgan. Biroq, bunday qat'iy me'yorlar sezilarli kamchiliklarga ega edi.

Ijtimoiy infratuzilma va sanoat tarmoqlarini rivojlanish darajasidagi tafovutlar, shahar va qishloq aholisining mavjudligi, baho darajasining turlichaligi sababli viloyat hududida ko'rsatilayotgan byudjet xizmatlarining qiymati farq qiladi. Bunda, viloyat bo'yicha o'rtacha hisoblangan, byudjet xarajatlarining yuqorida keltirilgan qat'iy me'yorlarini qo'llash «o'rtacha harorat» samarasiga ega bo'lishi mumkin, ya'ni ayrim tumanlar bunday qat'iy

me'yorlar asosida o'z xarajatlarini to'la qoplay olishlari mumkin, boshqa hududlar esa o'rtacha qat'iy me'yorlar asosida xarajatlarini qoplay olmaydilar. Shundan kelib chiqib, viloyatning turli hududlaridagi tumanlar guruhi bo'yicha hisoblanuvchi va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarining mavjudligi, olisligi, shahar-qishloq aholisining soni va boshqa shu kabi parametrlarni hisobga oluvchi korrektirovka koeffitsientlarini qo'llash zarurdir.

Mahalliy byudjetlar xarajatlarini baholashning nisbatan asoslangan usuli sifatida ovqatlanish uchun xarajatlarning tibbiy me'yorlarini, ta'lim sohasida uslubiy materiallar va bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni me'yorlarini, byudjet tashkilotlari uchun kommunal xizmatlari xarajatlari bo'yicha limitlarni va boshqalarni hisobga oluvchi yagona davlat me'yorlari asosida xarajatlarni moliyalashtirish maydonga chiqadi.

Biroq, byudjet xarajatlarini yagona davlat me'yorlari asosida (ijtimoiy jihatdan maqbul va ilmiy asoslangan) mahalliy byudjetning real daromadlari bilan bog'lanmagan holda rejalashtirish hozirgi vaqtda byudjetning xarajatlar qismini daromadlar qismidan sezilarli darajada ortib ketishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ta'kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me'yorlarini hozirgi sharoitda qo'llash xarajat moddalari bo'yicha mahalliy byudjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo'yicha moliyalashtirish darajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Ushbu amaliyot shuni anglatadiki, byudjet tizimi bo'g'inlari faoliyatining huquqiy asosi bo'lmish «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun o'zining «belgilangan xarajat yo'nalishlari va hajmlari bo'yicha mablag'larni taqsimlash»ni ta'minlay olmasligi oqibatida tegishli funksiyasini bajara olmasligiga olib keladi. Buning natijasida mahalliy moliya organlari va Moliya Vazirligi o'rtasida mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirish yuzasidan kelishmovchilik va nomutanosibliklar saqlanib qoladi. Bundan tashqari byudjet xarajatlarining ijtimoiy maqbul va asoslangan davlat me'yorlari ma'lum ijtimoiy standartlar (iste'mol byudjeti minimumi, yashovchanlik

minimumi va h.k.)ning ham qonuniy tarzda tasdiqlanishini talab etadiki, bu holat yaqin kelajakda yagona davlat me'yorlarini qo'llashning imkoniyatlari cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Byudjet xarajatlari vakolatlarini taqsimlash tizimini isloh qilishning bu bosqichida mahalliy byudjetlar xarajatlarini xarajat yo'nalishlari (maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy va kommunal xo'jaligi, boshqaruv va boshqalar) bo'yicha jon boshiga to'g'ri keluvchi me'yorlar asosida taxminlashtirishda korrektirovka qiluvchi tuman koeffitsientlarining hisobga olinishi ushbu xarajatlar asoslilikini va ijrosini ta'minlaydi.

Respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarini taxminlashtirishda davlatning yagona me'yorlarini qo'llashda yuqorida bildirilgan holatlarning e'tiborga olinishi mahalliy moliya organlari va Moliya Vazirligi o'rtasidagi xarajatlarni taxminlashtirish amaliyotidagi kelishmovchiliklarni minimallashtirish imkonini beradi.

Byudjet xarajatlari vakolatlarini taqsimlash tizimini isloh qilishning yana bir muhim muammosi hozirgi byudjet amaliyotida uchrayotgan "mahalliy byudjet xarajatlari taxminlashtirilgandan so'ng uning ijrosida ayrim xarajatlarning respublika byudjeti ixtiyoriga olib qo'yish" holatlarining uchrashidir. Ushbu zaruriyat, albatta, tegishli xarajat yo'nalishining maqsadli moliyalashtirilishi va muddatliligini ta'minlashning ahamiyatliligidan kelib chiqsada, taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi yaxlitlikni buzadi. Huddi shunday holatni alohida xarajatlarning respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga o'tkazilishida ham kuzatish mumkinki, bunday byudjet tadbirlari byudjet amaliyotida uchramoqda.

Xarajatlar ijrosida mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga olib qo'yilayotgan xarajatlarga ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishning "birinchi sinf o'quvchilari uchun darsliklar ajratish xarajatlari"ni hamda "kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishqi kiyim xarajatlari"ni misol qilish mumkin.

Tegishli moliya yili uchun byudjet loyihasi tasdiqlangach, mazkur yil

investitsiya dasturiga tegishli o'zgartishlarning kiritilishi ayrim investitsiyalarni, jumladan, kollejar va litseylar qurilishini moliyalashtirish xarajatlarini respublika byudjetidan mahalliy byudjetlar ixtiyoriga o'tkazilishini zarur qilib qo'yimoqda.

Byudjet xarajatlarini taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi "davlat extiyoji" tufayli respublika byudjetidan mahalliy byudjetlar ixtiyoriga yoki mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o'tkaziladigan xarajatlar o'zaro hisob-kitoblarga qo'yilmoqda.

Byudjet amaliyotidagi hozirda mavjud bo'lgan ushbu holat byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajat vakolatlarining asoslangan va adolatli tizimi yaratilmaganligini tasdiqlaydi. «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonun ushbu xarajatlarni mahalliy byudjetlar zimmasiga yuklatilishini ko'rsatadi. Biroq, ushbu xarajatlarning mahalliy byudjetlarga ular daromad bazasini tegishli tarzda oshirmay turib biriktirilishi byudjet ssudalariga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib keladiki, ularni berish amaliyoti qaytaruvchanlik muammosining keskinligi tufayli nomaqbuldir.

Xarajat vakolatlarining taqsimlanishida, odatda, ushbu xarajatlarni ijro etuvchi hokimiyat darajasini belgilashdan boshlanadi, so'ngra xarajatlarning to'liq yoki qisman moliyalashtirilishini mahalliy darajada xal etish ko'lami aniqlanadi. Shundan kelib chiqib, mahalliy byudjetlar jami xarajatlari ichida aholiga adresli ijtimoiy yordam ko'rsatish xarajatlari (birinchi sinf o'quvchilari uchun darsliklar ajratish xarajatlari, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyim xarajatlari)ning istiqbolli yo'nalishlari aniqlanadi. Ushbu maqsadli xarajatlarning moliyalashtirilmay qolishi holatining oldini olish, byudjet ssudalarining asossiz tarzda o'sib ketishiga yo'l qo'yish holatining bartaraf etilishi uchun ushbu xarajatlar ijrosini ta'minlashga respublika byudjetidan maqsadli subvensiyalar ajratilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining agrar xususiyati e'tiborga olinsa, suv xo'jaliklari faoliyatini ta'minlash xarajatlari bo'lmish sug'orish xarajatlari,

kollektor-drenaj tizimlarini tozalash xarajatlari, to'g'onlarni mustahkamlash xarajatlari, sho'r bosgan yerlarni yuvish xarajatlari va suv xo'jaligi bo'yicha boshqa kapital xarajatlarni moliyalashtirishning naqadar ahamiyatlilikini ta'kidlash unchalik qiyin emas.

Ushbu xarajatlarni taxminlashtirish amaliyotidagi kelishmovchiliklar shundaki, qishlok va suv xo'jaligi Vazirligi mavjud ehtiyojlaridan kelib chiqsa, Moliya Vazirligi taxminida asosiy e'tibor o'tgan yili qilingan xarajatlarning haqiqiy miqdori va byudjet daromad bazasining o'zgarishiga qaratiladi. Suv xo'jaligi xarajatlari bo'yicha taxmin muhokama etilib, asoslanilgandan so'ng qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi xarajatlar hajmini viloyatlar bo'yicha taqsimlaydi, vaholanki mazkur xarajatlar respublika byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi.

Xarajatlarning samaradorligi, joylardagi ehtiyojlarning yanada to'liq e'tiborga olinishi nuqtai-nazaridan suv xo'jaligi xarajatlarini markazlashgan holda moliyalashtirish amaliyotini maqsadga muvofiq deb bo'lmaydi. Biroq, shuni ham alohida e'tiborga olish lozimki, suv xo'jaligi xarajatlarning kapital xususiyatga ega bo'lgan turlarini mahalliy byudjetlar ixtiyoriga o'tkazish yoki alohida hudud zimmasiga yuklashning imkoni yo'qdir.

Byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajatlarni moliyalashtirish vakolatlarining taqsimotini takomillashtirish maqsadida suv xo'jaligi xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotida respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar ishtirokini zamon talabiga moslash lozim. Ushbu maqsadda quyidagi yondoshuvni asoslash mumkin:

- mahalliy xususiyatga ega bo'lgan xarajatlarni, jumladan, to'g'onlarni mustahkamlash, sug'orish, kollektor-drenaj tizimlarini tozalash, sho'r bosgan yerlarni yuvish xarajatlari mahalliy byudjetlarga biriktirilishi lozim;

- kapital xususiyatga ega bo'lgan xarajatlar, irrigatsiya tizimi joylashuvi va kapital ta'mirlashga katta hajmdagi moliyaviy resurslar talab qilinganligi tufayli, respublika byudjetiga biriktirilmog'i zarur.

Suv xo'jaligi xarajatlarini mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtirish tegishli daromad bazasini ham talab etadi. Subvensiya oluvchi hududlar uchun soliq tushumlari hisobiga qo'shimcha daromad topish juda mushkul, chunki busiz ham ushbu hududlarda yig'ilayotgan soliqlarning 100 %i ular ixtiyorida qolayotir. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, yaqin istiqbolda ushbu hududlarda daromad bazasini mustahkamlash faqatgina maqsadli subventsiyalar hisobigagina ta'minlanishi mumkin, keyinchalik esa, mahalliy byudjetlar daromad bazasi ortishi sharoitida ularning daromad manbaiga tayanibgina suv xo'jaligi xarajatlarini birlashtirish mumkin bo'ladi.

Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini xarajat vakolatlari taksimotini mukammallashtirish orkali yaxshilash yo'nalishlari yuzasidan quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

- bugungi kunda respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajat majburiyatlaridagi cheklovlar egiluvchan, biroq bir tizimga solinmagan ko'rinishga egadir;

- O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni bilan respublika va mahalliy byudjetlardan tarmoqlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishning cheklovlari va qonuniy mustahkamlanishi amalga oshirilgan;

- biroq, qonunda keltirilgan cheklovlar respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarini moliyalashtirish jarayonidagi ma'lum nomutanosibliklarni bartaraf qilmaydi;

- byudjet xarajatlari vakolatlarini taqsimlash tizimini isloh qilishning yana bir muhim muammosi hozirgi byudjet amaliyotida uchrayotgan «mahalliy byudjet xarajatlari taxminlashtirilgandan so'ng uning ijrosida ayrim xarajatlarning respublika byudjeti ixtiyoriga olib qo'yish» holatlarining uchrashidir. Ushbu zaruriyat, albatta, tegishli xarajat yo'nalishining maqsadli moliyalashtirilishi va muddatliligini ta'minlashning ahamiyatliligidan kelib chiqsada, taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi yaxlitlikni buzadi. Huddi

shunday holatni alohida xarajatlarning respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga o'tkazilishida ham kuzatish mumkinki, bunday byudjet tadbirlari byudjet amaliyotida uchramoqda;

- Byudjet xarajatlarini taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi o'zaro hisob-kitoblarga qo'yilmoqda.

- byudjet amaliyotidagi hozirda mavjud bo'lgan «davlat zaruriyati» tufayli xarajatlarni respublika byudjetidan mahalliy byudjetlar ixtiyoriga yoki mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o'tkazish holati byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajat vakolatlarining asoslangan va adolatli tizimi yaratilmaganligini tasdiqlamokda.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, yuqoridagi fikrlarning amalga oshirilishi byudjetlararo munosabatlar tizimini yanada takomillashtirishga hamda xarajatlar samarali moliyalashtirilishida hududlar imkoniyatlarini oshirilishiga xizmat qiladi.

III Bob bo'yicha xulosalar

Mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini xarajat vakolatlari taksimotini mukammallashtirish orkali yaxshilash yo'nalishlari yuzasidan quyidagi xulosalarni berishimiz mumkin:

- bugungi kunda respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida xarajat majburiyatlaridagi cheklovlar egiluvchan, biroq bir tizimga solinmagan ko'rinishga egadir;

- O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi qonuni bilan respublika va mahalliy byudjetlardan tarmoklar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishning cheklovlari va konuniy mustahkamlanishi amalga oshirilgan;

- biroq, konunda keltirilgan cheklovlar respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlarini moliyalashtirish jarayonidagi ma'lum nomutanosibliklarni bartaraf

kilmaydi;

- byudjet xarajatlari vakolatlarini taksimlash tizimini isloh qilishning yana bir muhim muammosi hozirgi byudjet amaliyotida uchrayotgan «mahalliy byudjet xarajatlari taxminlashtirilgandan so'ng uning ijrosida ayrim xarajatlarning respublika byudjeti ixtiyoriga olib ko'yish» holatlarining uchrashidir. Ushbu zaruriyat, albatta, tegishli xarajat yo'nalishining maksadli moliyalashtirilishi va muddatliligini ta'minlashning ahamiyatliligidan kelib chikmada, taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi yaxlitlikni buzadi. Huddi shunday holatni alohida xarajatlarning respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga o'tkazilishida ham kuzatish mumkinki, bunday byudjet tadbirlari byudjet amaliyotida uchramokda;

- Byudjet xarajatlarini taxminlashtirish va ijro etish jarayonidagi o'zaro hisob-kitoblarga ko'yilmokda.

- byudjet amaliyotidagi hozirda mavjud bo'lgan «davlat zaruriyati» tufayli xarajatlarni respublika byudjetidan mahalliy byudjetlar ixtiyoriga yoki mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o'tkazish holati byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida xarajat vakolatlarining asoslangan va adolatli tizimi yaratilmaganligini tasdiklamokda.

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida O'zbekistonda amalda bo'lgan mahalliy soliqlarning ilmiy, amaliy va tarixiy rivojlanish asoslarini tadqiq etish, respublikamiz va xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil etish, mahalliy soliqlarni undirish mexanizmining amaldagi tartibiga tayanib, hozirgi kunda mahalliy soliqlarni hisoblash bo'yicha mavjud muammolar ushbu soliqlarni takomillashtirish va ulardan yanada samarali foydalanish bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi. Ular quyidagilardan iborat:

- mahalliy soliqlar bugungi kunda mahalliy hokimiyatlarni o'z funktsiyalarini va vakolatiga kiruvchi vazifalarni to'laqonli amalga oshirishi eng asosiy muhim moliyaviy asosi bo'lib qolmoqda, chunki, bugungi kunda mahalliy byudjetlar orqali xalq ta'limi, sog'liqni saqlash va madaniyat muassasalari moliyalashtirilib boriladi.

- mahalliy byudjetlar aholini ijtimoiy himoya qilish borasida davlatning olib borayotgan siyosatining joylardagi asosiy tanchi hisoblanadi. Qayd etish joizki, qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100 foizi, davlat kapital qo'yilmalarining 60 foiziga yaqini mahalliy byudjetlar orqali moliyalashtiriladi. Bu borada esa mahalliy soliqlarni o'rni ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

- tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki hozirgi kunda mahalliy byudjetlar xarajatlari respublika davlat byudjeti xarajatlarida eng yuqori salmoqni (58-60 %) tashkil etmoqda. O'z navbatida mahalliy byudjet daromadlari esa davlat byudjeti daromadlarining 55-58 foizini tashkil qilmoqda.

- tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy soliqlar ichida eng asosiy o'rinni mol-mulk solig'i, yer solig'i eng katta salmoqqa egadir.

Biz mahalliy soliqlarni takomillashtirish maqsadida yuqorida ta'kidlangan fikrlarni umumlashtirib quyidagi taklif va tavsiyalarni berishni lozim deb topdik:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlarni huquqiy asosi sifatida Soliq Kodeksiga qadar 1993 yil may oyida qabul qilingan «Mahalliy soliqlar va yig'img'lar» to'g'risidagi Qonun xizmat qilar edi. Bu qonun Soliq Kodeksi qabul qiligandan so'ng o'z kuchini yo'qotdi bu qonuning asosiy mazmuni esa kodeksda o'z aksini topdi. Biroq, qayd etish zarurki, «Mahalliy soliqlar va yig'img'lar to'g'risida»gi Qonunda mahalliy soliqlar bo'yicha mahalliy hokimiyatlarni soliq va byudjet huquqlari aniq yoritib berilgan edi, ammo, bu holat Soliq Kodeksida to'liq aks ettirilmagan, ya'ni bunda mahalliy soliqlar va yig'img'lar bo'yicha faqat ularni turlarini ko'rsatish bilan cheklangan va mahalliy hokimiyatlarning soliq huquqlari mavhum holda qolgan. Shu boisdan, bizning fikrimizcha, mahalliy soliqlarni o'rni ortib borar ekan, bu soliqlarni joriy etish, bekor qilish va amal qilish holatlarini yanada to'laroq aks ettirish lozim, ya'ni soliq kodeksini 23-moddasiga qo'shimcha kiritish va unda mahalliy hokimiyatlarni soliq huquqlari aniq ravshan qilib belgilanishi zarur deb hisoblaymiz.

Ikkinchidan, yer solig'i soliq to'lovchilarni moliyaviy natijalariga bog'liq bo'lmagan holda undiriladi ya'ni yerni fizikaviy, ximiyaviy xususiyati hamda yerni joylanishiga soliqlarni belgilashda asos qilib olinadi. Ammo, qayd etish joizki, hozirga qadar respublikamizda yerlarning baniteti ilgari ancha yillar oldingi ma'lumotlar bo'yicha yuritilmoqda. Shuni e'tiborga olib yerlarni banitetini qaytadan ob'ektiv aniqlash va shu asosda soliq stavkasini ham qayta ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, bugungi kunda mahalliy soliqlar mexanizmining samaradorligini ta'minlash uchun quyidagilarni ham amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

- mahalliy soliqlar bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq yukini kamaytirish maqsadida mahalliy hokimiyatlarga ichki qarz mablag'larini joriy etish vakolatini ta'minlovchi yangi qonunlar qabul qilinishi zarur.

- mahalliy byudjetlarni xarajatlarini moliyalashtirish uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar foizi har yili o'zgartirilgan holda emas, balki kamida 5 yilga o'zgarmas tartibda o'rnatish lozim.

Turtinchidan, noqishloq xo'jalik maqsadlarida yerlardan foydalanadigan yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkalarini ularning faoliyat turiga qarab takomillashtirish lozim.

Beshinchidan, yer solig'ini to'lash tartibini buzganlik uchun belgilangan moliyaviy jazo va ma'muriy jarimalarni miqdorini oshirish lozim, chunki amaldagi javobgarlik choralari yer solig'ini byudjetga to'la va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlay olmayapti.

Oltinchidan, hozirga qadar respublikamizda yerlarni baniteti ilgari ancha yillar oldingi ma'lumotlar bo'yicha yuritilmoqda. Shuni e'tiborga olib, yerlarni banitetini qaytadan ob'ektiv aniqlash va shu asosda yuridik shaxslar tasarrufida bo'lgan yer uchastkalari hajmini ham qayta ko'rib chiqish lozim deb hisoblaymiz;

Yettinchidan, ma'lumki qurilish tashkilotlari, transport tashkilotlari katta hajmdagi yer maydonlariga ega bizning fikrimizcha, ushbu korxonalar uchun yer solig'ining stavkalarini kamaytirib belgilash zarur;

Sakkizinchidan, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq to'lovchilari faoliyatiga ta'sirini, ya'ni soliq og'irligining xo'jalik faoliyatiga ta'siri o'rganilib, soliq to'lovchilarga nisbatan soliq og'irligini muvofiqlashtirish mezonlari ishlab chiqish kerak;

To'qqizinchidan, agar soliqni to'lash muddati hisobga olinadigan bo'lsa, ayrim korxonalar har bir soliq turlari bo'yicha to'lov topshiriqnomalarini taqdim etishlariga to'g'ri keladi. Tekshirishlarning ko'rsatishicha, buxgalterlarning malakasi pastligi sababli ko'p xo'jaliklar soliqni noto'g'ri hisoblaganlar va shu sababli ularga ancha miqdorda jarima solingan. Bu qoida malakali buxgalterlari bo'lmagan kichik korxonalar uchun ayniqsa muhimdir. Yer solig'ini hisoblash esa chuqur bilimni talab qilmaydi, demak xatoga kamdan-kam yo'l qo'yiladi.

Bundan tashqari, yer solig'i yil boshida bir marta hisoblab chiqiladi va yil oxirigacha o'zgarmay qolaveradi, bu esa xo'jaliklarga o'zlarining ishlab chiqarish-moliya faoliyatini aniq rejalashtirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan asoslashga yo'naltirilgan bo'lib, hozirgi sharoitda ushbu soliq turidan yanada samaraliroq foydanishni ta'minlashga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008 y. -40 B.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692 B
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni, 2000 yil 14 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-343-sonli Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257 sonli Qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma'ruzalari

8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. —Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2000 - B. 352.
9. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. -T.: "O'zbekiston" NMIU, 2005.-B. 528.
10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2005. - B. 96.

11. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. - Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2007. -B. 48.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash-barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2008. - B. 64.
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008. -B. 176.
14. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish - davr talabi // Halq so'zi, 2009 yil 14 fevral.
15. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari / - T.: "O'zbekiston" NMIU, 2009. -B. 56.
16. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2010. -80 b.
17. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
18. Karimov I.A. "2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
19. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz-keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy

dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.

III. Darslik va o'quv adabiyotlari:

20. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.
21. Vahobov A., Jumaev N., Burxanov U. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: Sharq, 2003. -400 b.
22. Jo'raev A.S. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish-ning samarali yo'llari. / Monografiya. “Fan” nashriyoti. 2004 y.
23. Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2008. -210 b.
24. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. / “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi, 2005. -544 b.
25. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. –T.: Akademiya, 2002. -204 b.
26. Налоги и налогообложение. Учебник для вузов /Под ред. Д.Г.Черника. М: Юнита-Дана, 2010. -345 с.
27. Финансы. /Под ред. Л.А. Дробозиной –М.: ЮНИТИ, 2010. -350 с.
28. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.
29. Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “O'qituvchi” nashriyoti, 2007. –232 b.
30. Toshmurodova B., Elmirzaev S. Korporativ soliq menejmenti. O'quv qo'llanma. –T.: “MUMTOZ SO'Z”, 2010
31. Мандрошченко О., Пинская М. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Дашков и К”, 2010
32. Черник Д. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: “Юнити-Дана”, 2010
33. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. –М.: “Эксмо”, 2010

34. Худолеев В. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: “Форум”. 2009
35. Malikov T.S. Soliq yukining og'irligini keskin kamaytirish kerakmi? Risola. -T.: 2006. —B. 32.
36. Mamanazarov A.B. Soliq siyosati. -T.: «Moliya», 2003. -B. 148.
37. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130
38. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.
39. Qurbonov Z.N. Soliq auditi.-T.: «Fan va texnologiyalar», 2007.-B. 120.
40. 2,42, Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: “Akademiya”. 2005. 123-bet

IV. Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

41. Boymurodov S. Soliq imtiyozlari va ularning soliq to'lovchilar moliyaviy faoliyatiga ta'siri. //Soliq solish va buxgalteriya hisobi. 2007 yil, №8
42. Jo'raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to'lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.
43. O'rmonov J. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.
44. O'rmonov J., Yu.Xodjaev. Soliq tizimini takomillashtirish-dagi ayrim masalalar. //O'zbekiston Respublikasida g'aznachilik tizimini shakllantirish sharoitida byudjet-soliq siyosatining dolzarb masalalari. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007.-B. 81-82.
45. O'rmonov J. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik kayta jixozlashni soliqlar vositasida rag'batlantirish. //Soliq siyosatini yanada erkinlashtirish - eng

muhim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi materiallari to'plami. - Toshkent, 2007. - B. 20-21.

46. O'rmonov J. Soliq siyosati islohotlari taraqqiyot omili. //Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq tizimini takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. - Toshkent, 2008. - B. 29-30.

V. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

47. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2007 yil. -T.:2008.-№5.
48. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2008 yil. -T.:2009.-№10.
49. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2009 yil. -T.:2010.-№12.
50. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2011.-№9.
51. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2012.-№6.
52. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2008 - 2012.

VI.Internet saytlari.

53. <http://www.press-service.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti axborot markazi sayti
54. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
55. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
56. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti
57. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti
58. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
59. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
60. <http://www.tfi.uz>-Toshkent moliya instituti sayti.